

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

ABDULLAYEV SAYFULLA FAYZULLAYEVICH

**ARXITEKTURAVIY QALAMTASVIR, RANGTASVIR VA
HAYKALTAROSHLIK**

*5340100 – Arxitektura (turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lif yo'naliishi bo'yicha
o'quv qo'llanma*

BUXORO - 2021

Sayfullo Abdullayev

Arxitekturaviy qalamtasvir

Mazkur o'quv qo'llanma 5340100-Arxitektura (turlari bo'yicha) ta'lif yo'naliشining "Arxitekturaviy qalamtasvir" namunaviy o'quv dasturiga asoslangan xolda taylorlangan va bo'lajak rassom – arxitektorlarni qalamtasvir asoslarini o'rgatishning muxim masalalariga bagishlangan. O'quv qo'llanmada tasvirlash ketma – ketligi, perspektiva, narsalarning konstruktiv tuzilishi, tus munosabatlari, gipsli modellar chizishning nazariy va metodik qoidalari keltirilgan. Qisqa muddatli kreativ xarakterdagи topshiriqlar – eskiz va qisqa muddatli rasmlarni bajarishga katta e'tibor qaratilgan.

Данное учебное пособие подготовлено на основании типовой учебной программой «Архитектурный рисунок» для направления бакалавриата 5340100-Архитектура (по типам) и посвящено важному разделу обучения будущих художников – архитекторов основам рисунка. В учебном пособии изложены теоретические и методические правила рисования гипсовых фигур: их конструктивное построение, тональные отношения, перспектива, последовательность изображения. Большое вниманиеделено краткосрочным креативным заданиям – эскизам и зарисовкам.

This tutorial was prepared on the basis of the typical curriculum "Architectural drawing" for the undergraduate program 5340100-Architecture (by type) and is devoted to an important section of training future artists - architects, the basics of drawing. The tutorial sets out the theoretical and methodological rules for drawing plaster figures: their constructive construction, tonal relationships, perspective, image sequence. Much attention is paid to short-term creative tasks - sketches and sketches.

Taqrizchilar:

Maxmud Badiyev, Buxoro davlat universiteti, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasi dotsenti, Arxitektorlar uyushmasi a'zosi

O'qtam Yodgorov, Buxoro muhandislik – texnologiya instituti "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" kafedrasi mudiri, t.f.n. dotsent

KIRISH

So‘nggi yillarda madaniyat va san’at sohasini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, madaniyat va san’at muassasalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini yaratish maqsadida tizimli ishlar olib borilmoqda. Bunda O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning bir qator farmoyishlar va qarorlari imzolangan.

Arxitekturaviy qalamtasvir fani badiiy va estetik tarbiyada bo‘lajak arxitektorlar malakali mutaxassislarni tarbiyalashda asosiy o‘quv fanlaridan hisoblanadi. Arxitekturaviy qalamtasvir mustaqil o‘quv predmeti sifatida borliqni haqqoniy tasvirlash, arxitektorlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, estetik did va ehtiyojlarini tarbiyalashda cheksiz imkoniyatlarga ega.

Bo‘lajak arxitektorlar estetik tarbiyasi, badiiy didi va ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirish, ularga borliqni tasvirlash uchun tasviriy san’at asoslarini chuqr egallash, haqqoniy rasm chizish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni shakllantirish vazifasi turadi. Bu vazifani hal etish faqatgina talabada ko‘rib-kuzatib tasvirlash, borliqni idrok etish, qo‘l, ong va sezgi organlarini shakllantirish, tasvirlash malakalarini egallash orqali yechiladi. Mutaxassis tasvirlash san’atining nafaqat amaliy bilimlarini balki, tasviriy san’atning nazariy asoslarini puxta egallahslari kerak. Zeroki, dunyo tan olgan, o‘zidan o’lmas asarlar qoldirib ketgan buyuk musavvir Leonardo da Vinchi “Amaliyotga ilmsiz mehr qo‘yadigan kishilar rulsiz yoki kompassiz suzishga kirishayotgan daholarga o‘xshaydilar, chunki ular qayoqqa ketayotganlarini hech mahal bilmaydilar, shu sababli oldin ilmni o‘rgan, so‘ngra esa shu ilm orqasidan tug‘ilgan amaliyotga murojat qil” deb bejiz ta’kidlamagan edi.

Shu sababli men o‘quv qo‘llanmada tasvirlash san’atining nazariy asoslariga ham e’tiborni qaratdim. Bu asosan rasmda kompozitsion yechim, chiziqli – asos tuzilishi, nisbatlar, perspektiva, yorug’ - soya qonunlari, ishni bajarish ketma-ketligi kabi mavzularda o‘z aksini topgan.

Ma'lumki rassom-arxitektor bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonida gipsdan yasalgan geometrik jismlar rasmini, ular to'plami, gipsdan yasalgan turli naqshlar, rozetkalar rasmini tasvirlash kabi o'quv topshiriqlari muhim o'rinni egallaydi. Yuqorida keltirilgan mavzular bo'lajak arxitektorning faoliyatida juda qo'l keladi.

Birinchi bosqichdan boshlanadigan arxitekturaviy qalamtasvir asoslari bo'yicha o'quv topshiriqlari komponovka, konstruktiv tuzilish, perspektiva kabi ilmiy bilim asoslari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birgalikda talabalar o'qituvchi rahbarligida va mustaqil ravishda arxitekturaviy qalamtasvir bo'yicha usuliy o'quv adabiyotlarini o'rganishlari maqsadga muvofiqdir.

Rasm asoslarini o'rganish jarayonida bo'lajak arxitektorlar natura (narsaning o'ziga qarab), xotira – tasavvurdan chizishni o'rganadilar. Rasm chizishni o'rganishda chiziqli perspektiva qonunlarini o'rganib, amaliyotda qo'llash ham benihoya muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, I kursda kuzatish perspektivasi asoslarini egallah juda muhimdir. Shu bilan birgalikda talaba professional va usuliy tayorgarligida predmetlarning konstruktiv tuzilish qoidalarini o'zlashtirishi muhim o'rin egallaydi.

Arxitekturaviy qalamtasvir bo'yicha o'quv dasturi ma'lum tizimga keltirilgan topshiriqlarni bajarishga qaratilgan va birinchi jarayondan boshlab o'quv topshiriqlari gipsli (ganch) modellar ustida ishlashni nazarda tutadi. Bu oddiy geometrik figuralar (kub, konus, shar, silindr va h.z.). Shu bilan birgalikda dasturda turli xil qisqa muddatli rasmlar (qoralama, chizgi) bajarish ham nazarda tutilgan.

Geometrik jismlarni ma'lum bir kompozitsion guruhgaga tizib ishlash talabalarga rasm chizish qoidalarini (perspektiva, konstruktiv tuzilish, yorug'lik – soya tarqalishi) o'rganishga yordam beradi. Kelajakda talabalarga murakkab jismlarning konstruktiv tuzilishi qoidalarini tushunish va o'zlashtirishda mazkur topshiriqlar asos bo'ladi.

Gipsli mashqlarni tasvirlash mazmuni perspektiva va yorug' soya nazariyasini amaliyotda qo'llay olishga qaratilgan.

Antik davrga mansub gipsdan ishlangan kapitel namunasining qalamtasvirini tasvirlash uning materiallik xususiyatlari ifodalash talab etadi.

Tasviriyl san'at asoslарини о'рганишда ко'ргазмалilik juda katta o'rин egallashini hisobga olib o'quv qo'llanmada shu sohada ta'lim olayotgan talabalar, magistrantlar hamda qadimgi va hozirgi davr rassom, rassom - pedagoglarning qalamtasvirga oid ishlari tanlab olingan. Talabalar tushunishi va chizishini osonlashtirish maqsadida bir naturaning bir qator ko'rish nuqtalaridan chizilgan tasvirlari keltirilgan. Mazkur o'quv qo'llanmani yaratishda rus, ingliz va o'zbek tilida chop etilgan maqola, ilmiy – uslubiy kitoblardan o'rin olgan rasmlardan ham foydalanildi. Xususan ko'p tomlik "Shkola izobrazitelnogo iskusstva" (M., "Iskusstvo" 1964), "Uchebniy risunok", B. Boymetov, S. Abdurasilov, va N. Tolipovlarning "Tasviriyl san'atni o'qitish metodikasi" (Toshkent 2007), "Chizma tasvir", "Qalamtasvir asoslari" (Toshkent 2006), N.D. Tenning "Gips modellar rasmi" (Toshkent "O'qituvchi" 1994) va hokazo.

Qo'llanmadan muhandislik – texnologiya institutlarida bo'lajak arxitektorlarini tayorgarligida ehtiyoj sezilganligi uchun ushbu o'quv qo'llanma taylorlandi va muallif bu kitob haqidagi fikr-mulohazalarni talabalardan kutadi va ularni mammuniyat bilan qabul qiladi.

I BOB. TASVIRLASHNING ASOSIY QONUN – QOIDALARI


Geometrik jismlardan tuzilgan kompozitsiya, me'moriy detallar tasviri (kapitel, rozetka va boshkalar), gipsdan yasalgan vaza tasviri, qalamda natyurmort chizish, yorug-soya nazariyasi, qalamtasvirda perspektiva, bob bo'yicha nazorat va mustahkamlash savollari.

Geometrik jismlardan tuzilgan kompozitsiya

Ta'lim tizimida rasmni o'rganish eng avvalo turli geometrik jismlarni chizishdan boshlanadi. Bu uchun avvalo shu predmetlar shakli simdan yasalgan bo'lsa maqsadga muvofiqdir. Rasm chizishni o'rganuvchilar ma'lum bir hajmga ega bo'lgan predmetlarni chizishni oddiy kubni tasvirlashdan boshlashlari maqsadga muvofiqdir. Buning uchun gips model bilan bir qatorda uning o'lchamiga teng simdan yasalgan karkasini qo'yish tavsiya etiladi. Bunda kubning orqadagi ko'rinas qismlari yaqqol ko'rindi va chizuvchi kubning aniq konstruktiv shaklini ko'ra oladi.

Karkas va kub chizuvchiga nisbatan 45 burchak ostida qo'yiladi. Shunday qilib chizuvchi oldida ikki o'lchamli qog'oz, qo'lida qalam, ko'z oldida stol va uning ustida model turibdi. Model chizuvchi qo'lini oldinga cho'zgan holdagi masofadan kam bo'limgan masofada qo'yiladi. Endi diqqat bilan naturani kuzatamiz va uning bir qirrasi bizga yaqin, qolgan qirralari va tomonlari bizdan uzoqroqda joylashgan. Ishni nimadan boshlaymiz? Har bir ish asosni topishdan boshlanganligi sababli kubni ham asosini topishga harakat qilamiz. Qog'oz chetiga nisbatan gorizontal chiziq o'tkazib gorizontal chizilgan chiziqqa nisbatan qaysi burchak ostida ichkari tomon ketgan tomonlarni ko'z bilan chandalab belgilab olamiz. So'ngra asosni chizib olib kubning bizga yaqin tomonini pastki qismiga nuqta qo'yamiz va u qirrani balandligini belgilab vertikal chiziq o'tkazamiz. Keyin qolgan qirralarini balandligini belgilab vertikal ravishda yuqoriga ko'taramiz. Yuqori qismini belgilangan joylaridan bir – biriga chiziqlar o'tkazib tutashtiramiz. Natijada bizga kubning simli modelining aniq chiziqli rasmi hosil bo'ladi. Ish

bajarish chamalash usuliga asoslangan bo'lib o'lchov asboblarisiz bajariladi. (1 - rasm). Bunda chizuvchi naturaning ichkariga ketgan tomonlarini ham ko'radi, perspektiv qisqarishni his qiladi. Chizuvchiga perspektiv qisqarishini o'rganish davomida turli predmetlar masalan: shisha banka, piyola, stul, stol, shkaf, televizor va boshqa predmetlarning qisqa muddatli konstruktiv chiziqli tasvirlarini chizishi keyingi tusli ishlar bajarganda katta yordami tegadi.




1 - rasm. Kub rasmini chizishni boshlang'ich bosqichlari

Biz gipsdan yasalgan kubni chizish uchun quyidagilarga e'tibor berishni tavsiya etamiz. Kubning gipsdan yasalgan modelini chizganda ham uni simdan yasalgan konstruksiyasi kabi shaffof materialdan deb faraz qilamiz va konstruksiyasini topamiz. So'ngra chizayotgan ishimizni yana bir bor natura bilan solishtirib shakl hajmini berishni boshlaymiz. Yorug'lik kubni yuzasiga tushib turli tuslarni hosil qiladi. Yorug'lik tushishini kuzatib chizuvchi eng yorug' va eng to'q joylarini hamda yorug'roq joylarini aniqlaydi. Inson idroki xususiyati eng avvalo katta shaklni ko'rib so'ng uni qolgan qismlariga diqqatni qaratish keraklidir. Bu rasmni chizishning eng asosiy jarayoni umumiylidkan xususiylikka qarab

tasvirlashdir. Bu erda kubni umumiy shakl va yoritilganligi topilib so'ngra qolgan detaliga ishlov berishga o'tiladi. (2 - rasm)


Yorug'likning to'g'ri tushishi natijasida hosil bo'lgan yorug' va to'q qirralarni aniqlaymiz va to'q joyiga yengil shtrix beramiz. Shunday qilib yorug' va to'q joy aniqlandi. Shundan so'ng soya – yorug'liklarni bat afsil tahlil qilib ishlov beriladi.



2-rasm. Kub rasmini chizishni navbatdagi bosqichlari.

Kub rasmini chizish jarayoni ikki qismdan iborat: birinchisi – kub konstruksiyasini tuzish, ikkinchisi – soya – yorug'liklarni aniqlash va berish. Kubning gipsdan yasalgan modelini chizishdan oldin uni diqqat bilan kuzating. Uni tashkil etgan tomonlariga qirralariga, yorug'lik tushishi natijasida hosil bo'lgan soya-yorug'liklar vositasida qanday tasvirlashni ko'z oldingizga keltiring.


Kubni ufq chizigidan pastga joylashtirishni unutmang. Uni qog'ozingiz yuzasiga qanday tartibda chizishingizni, ya'ni kompozitsion ko'rish nuktasidan to'g'ri tasvirlashni chamalab ko'ring. Kubning eng katta o'lchamlarini qog'ozga belgilang. Kubni tashkil qilgan qirralarini simdan yasalgan model deb faraz qilib uni konstruksiyasini toping. Kubning bizga yaqin turgan tomoni o'z o'lchamida bo'lishi, uzoqlashgan tomonlari qiskarishini esdan chiqaring. Bu uchun perspektivadan olgan bilimingizni qo'llang. Chizilayotgan tasvirlarda olgan barcha bilimingizni qo'llang. Chizilayotgan tasvirlarni qalamni qattiq bosmasdan chizing. Kubni chizib bo'lgandan sung yorug'lik tushishi natijasida hosil bo'lgan jismdagi yorug'-soya shtrix, tushevka yordamida bering. Diqqat bilan qarang, kub biror-bir chiziq bilan o'rab olinmagan. Xajmni berishda tus masshabini qabul qiling va shu asosda soya, yorug'lik, yarim soya, tushuvchi soyalarini bir-biriga nisbatan solishtirgan holda bering. Ishni yakunlash oldidan umumlashtiriladi, to'q joylar pasaytiriladi yoki aksincha kuchaytiriladi.



3 - rasm. Prizma rasmini chizish.

Kubni chizib bo'lgandan so'ng shakl jihatdan murakkab bo'lgan olti qirrali prizma modelini chizishga o'tish mumkin. Bu modelni chizish ketma – ketligi ham kubni chizishga o'xshab eng avvalo uni konstruktiv tuzilishi quriladi. Lekin bu erda prizmani chizishga yangicha yondashuv talab etiladi. Eng avvalo hayolan ko'zga yaqin bo'lgan prizma qismini belgilaymiz. Bu qismdan burchak emas,

balki, prizmaning qarama – qarshi tomoni bilan bog’lovchi markaz asosi aniqlanadi. Qachonki oldindagi qism belgilanib bo’linsa asosning boshqa tomonlariga ketuvchi tomonlari burchagi topiladi. Keyingi bosqich asos topilgandan so’ng bizga yaqin bo’lgan qism qirralari balandligi tiklanadi, bu jarayon xuddi kubni chizgandagidek prizmaning ustki asosi chizilib chiqiladi. Keyin yorug’soya munosabatlari natura bilan solishtiriladi, taqqoslanadi, eng yorug’ va eng to’q joylari topiladi. Oxirgi bosqich qirrali prizma ustida ishlashda rasmni umumlashtirish bo’lib. bu katta ahamiyatga ega. Bu bosqichda chizilayotgan tasvirni yaxlitlikka keltirilishidir (3 - rasm).




4 - rasm. Silindr rasmini chizish.

Silindrni chizish uchun eng avvalo ishni uning paski asosini topishdan boshlanadi (4 - rasm). Asosni oldin olti qirrali, so’ng o’n ikki qirrali va hokazo qismlarga bo’lib aylana darajasigacha yetkaziladi. Silindr asosidan perpendikulyar chiqariladi, so’ng bizga ko’rinib turgan tomon va boshqa tomonlari quriladi. Silindr qurilishi tugatilgandan so’ng uning soya – yorug’liklari tahlil qilinadi va tus yechimiga o’tiladi. Silindrda eng yorug’ joy prizmaga o’xshab qirrada emas, balki, bir oz o’rtaroqda bo’ladi. Undan oldin va keyin yarimsoya, so’ng esa naturadagi eng to’q joy soya keladi. Predmetning shaxsiy soyasidan keyin yarimsoya va devor yoki stoldan qaytgan yorug’lik ta’siri natijasida refleks hosil bo’ladi. Demak,


yorug'lik, yarimsoya, soya va refleks tus gradastiyalari berilishi natijasida silindrning umumiy hajmli shakli hosil bo'ladi.

Silindr bir qancha holatlarda chizilgandan so'ng konusni chizish tavsiya etadiki, bunda ish jarayoni oldin chizilgan modellarga o'xshashdir.


Endi shar rasmini chizilishini ko'rib o'tsak. Sharni chizish oldingi modellarga o'xshab ko'pqirra asosida emas balki, boshqacharoqdir. Bunda eng avvalo shar tegib turgan yuzadagi nuqtani belgilab olamiz va undan ikkita diametr o'tkazamiz: vertikal va gorizontal. So'ng bu diametrlarga sharning chetki nuqtalarini belgilab aylana shaklni chizib olamiz va birdaniga tus yechimiga o'tamiz. Sharni chizganda shuni unutmaslik kerakki, uning hajmini berish yorug'soya munosabatlarining berilishi orqali yechiladi. (5 - rasm)




5-rasm.Shar rasmini chizish



6-rasm. Kub va konusning
konstruktiv asoslari.



7 – rasm. Gipsdan yasalgan kub va shar rasmini
chizish




8-9 rasmlar. Gipsdan yasalgan konus va kubni chizish

Geometrik jismlarni alohida tasvirlarini chizib bo'lingandan so'ng ularning to'plami rasmini chizishga o'tiladi. 6 - 9 - rasmlarda ularning namunasi keltirilgan.

Hajmli predmetlarni tasvirlashda nafaqat perspektiv jihatdan to'g'ri chizilishi orqa va oldingi tomonidagi chiziqlarning qalinligi hamda yoritilganligi, soya-yorug'liklar munosabati asosida hajmini berilishi bilan ham bog'likdir

Soya-yorug'lik deganda biz tasvirda to'q va yorug' shtrixlar, dog'lar qanday taqsimlanishini tushunamiz va oldingi topshiriqda bu haqda bat afsil ma'lumotga ega bo'lганмиз. Natura chizganda e'tibor bering unda chiziq degan narsaning o'zi yo'q, lekin biz chiziq yordamida naturani shaklini chizib topib olamiz.



10– rasm.Gipsdan yasalgan geometrik jismlardan tuzilgan

Naturaning sirtlarida chiziq yo'qligi, lekin unda soya va yorug'lik borligi va shu asosda biz naturaning hajmi haqidagi ma'lumotga ega bo'lamiz. Shar shaklidagi gips modelni kuzatish orqali biz sharning shaklini tasavvurimizda jonlantiruvchi soya va yorug'lik qatlamlari orqali uning hajmini idrok etamiz.

To'rt burchak shaklidagi predmetlarda ham yuqoridagi holatlar ya'ni soya-yorug'liklar tarqalishini predmetlar shakliga bog'liq ekanligini unutmaslik kerak.

Natyurmort fransuzga so'z bo'lib, turli buyumlardan tuzilgan kompozitsiya, ma'lum bir ma'noga ega bo'lgan jismlar yig'indisidir. Aniq tarjimasi "jonsiz tabiat" deb yuritiladi. Natyurmort chizish asosida rasm qoidalarini o'rgatish barcha badiiy maktablar usulida qadimdan bo'lgan. Bu borada Italiya, Olmoniya, Rossiya

kabi badiiy akademiyalarni boy tajribasini tilga olish mumkin. Leonardo da Vinci, Albrext Dyurer, Chennino Chennini kabi g'arbning buyuk rassomlari klassik meroslari ham fikrimiz dalilidir.

Natyurmort ustida ishslash jarayonida talabalar kuzatish perspektivasi, narsalarni konstruktiv tuzilishi soya – yorug' tarqalishi qoidalari haqida aniq bilim va ko'nikmalar hosil qiladilar, turli materiallar (shisha, metall, yog'och, mato va h.z._ fakturasini tus orqali ifodalashga o'rganadilar (10- rasm). Natyurmort chizishda eng birinchi navbatda shakli aniq, ortiqcha bezaksiz, murakkab bo'limgan buyumlarni tanlash kerak. Shundan so'ng natyurmort tuzish qoidalarini qo'llab natyurmort tuzish kerak. Tanlangan predmetlar orasida mantiqiy bog'lanishga e'tiborni qaratish zarur.

Bu uchun natyurmortnavis rassomlar bajargan ishlarni reprodukstiyalarini o'rganish tavsija etiladi. Ularning natyurmortni qanday tuzganliklariga e'tibor qaratilsa ko'p narsa ayon bo'ladi. Natyurmort uchun eng xarakterli narsa unda ishtirok etadigan narsalarning yagona kompozitsiya markaziga bo'y sunishini esdan chiqarmaslik kerak.

Ishda eng asosiy vazifalardan biri naturani qog'ozga qanday joylashtirilganligiga ham bog'lik. Chunki, chizilayotgan narsani qog'ozga vertikal yoki gorizontal joylashtirilishi turlicha ko'rindi.

Tasvirlanayotgan natyurmortni puxta o'ylab, tuzish ishning tabiiy chiqishiga yordam beradi. Ular uy-ro'zg'or buyumlari to'plami, musiqa asboblari, sport anjomlari va h.z. tuzilishi nazarda tutiladi. (11 - rasm)

Fon sifatida yaltiroq bo'limgan, bezaksiz, bir xil tusga ega bo'lgan mato ortiqcha buramalarsiz, tekis qo'yilsa maqsadga muvofiq buladi. Ishni bajarish rasm uchun asosiy bo'lgan prinsip umumiyligidan bo'laklarga hamda bo'laklardan umumiylilikka qaytish qoidasiga asoslanish kerak. Ishni baholashda naturaning qog'ozga qanday joylashtirilganligi fazodagi o'rni, perspektiv qiskarishlari hamda


soya-yorug' qonunlarining yechimi, nisbatlar alohida e'tiborga olinadi.(12 – 13-rasm)

O'quv ishida muhim bosqich matolar rasmini chizishni o'rganish, matolardagi buramalarning ma'lum joylashishuviga bog'liqligini o'rganishdir. Matoni mebel jihozи ustiga bir uchi bilan tashlab qo'yish, boshqa uchi osilib turishi yoki biron narsaga ilinib turishi yirik qatlar, turli siniqliklari bilan tasvirlash mumkin. Boshda matoni bezaksiz, silliqroq tanlash yaxshiroq, bu qatlar shaklini ancha umumlashtirib qabul qilishga imkon beradi. Birinchi xomaki rasmlarni kontrast kechki yorug'likda bajarishni tavsiya etiladi. Qatlam yoki buramalar shaklni aniqlaydi. Dastlabki tasvir oddiy bo'z mato chizilsa aniq qatlar hosil qilinganligini darhol sezamiz.(14 - rasm)


Navbatdagи uy topshiriqlarida vazifani murakkablashtirib kiyim rasmlarini bajarish tavsiya qilinadi. Ular stulga qo'yilgan ko'yvak, dekorativ mato va hokazo. Xatto qisqa muddatli, rasmda qatlar xususiyatini ifodalab, hamma vaqt mato joylashgan shaklni his etish, shuningdek qatlar ko'pligida shakldagi ancha xarakterlilarini ajrata olish zarur bo'ladi.

Bunday chizishlardan hosil qilingan ko'nikmalar syujet hamda dekorativ xarakterli kompozitsion topshiriqlar ustida ishlashda foyda keltiradi.


Matoni rasmi va uning shakl bilan bog'lanishiga rassomlar katta ahamiyat bergenlar.




11- rasm. Geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortni chizish bosqichlari



a)



b)




V)

12- (a, b, v) rasm. Geometrik
jismlardan tuzilgan natyurmortni
chizish bosqichlari.



13-rasm.Gips model ishtirokida natyurmort qalamtasviri
(gips, metall, plastmassa)



14-rasm.Gipsdan yasalgan bosh ishtirokida natyurmort.


Me'moriy detallar tasviri (kapitel, rozetka va boshkalar).

Rasm chizishni o'rganishda murakkab bo'lgan gipsli predmetlar shakliga, kapitel, rozetkalarni chizish uchun alohida o'rin ajratiladi. Gipsli model nushalar bizni oldingi davrlarda yashagan buyuk musavvir-me'morlarning ishlari bilan tanishishga asos bo'ladi. Rasm chizishni o'rgatishda barcha jaxonning badiiy maktablarida bu modellardan hozirgi kungacha ham foydalaniladi.


Gipsdan yasalgan bu modellarni chizish qo'zg'almas bir joyga o'rnatilib chizilganligi sababli chizuvchiga ajoyib qulaylik yaratadi. Chizuvchi naturani old tomondan, yondan yoki to'rtdan uch ko'rinishda hamda ufq chizig'iga nisbatan turli holatda chizish imkoniyatiga ega. Bu o'rganuvchiga perspektiv qisqarishlarni mukammalroq egallahshlariga yordam beradi.

Naqshlar bir qancha turlarga bo'linadi. Rasm chizishni o'rganishda ko'proq o'simliksimon gipsli naqshlar chizilishi jahon badiiy ta'limida muntazam qo'llanilib kelinmoqda. Ular gullar, mevalar, barglar va x.z.lardan iborat bo'lib stilizastiya qilingan shakllardir.

Gips taxtaga tushirilgan ushbu gullar tasviri ham qog'ozga kompozitsion joylashtirishdan boshlanadi.



15-rasm.Naqshli rozetka qalamtasviri (bosqichlari)



16-rasm. Naqshli rozetka qalamtasviri (yakuniy bosqich)


Rasmda eng muhim gips naqsh tasvirining qog'ozga nisbatan to'g'ri joylashtirilishidir. Bunda natura yuqoriga yoki pastga tushib ketmasligi, o'ngga yoki chapga surilib qolmasligi hamda qog'ozga nisbatan katta yoki kichik bo'lib qolmasligi kerak. Shundan so'ng gips taxtaga tushirilgan naqshning eng katta o'lchamlari belgilab olinadi. Keyingi bosqich katta o'lchamlar ichidagi barcha detallar aniqlanadi. Chizayotgan vaqtida perspektiv qisqarishga e'tibor berish kerak. Shaklning hajmli, chiziqli va konstruktiv tuzilishini aniqlab, taxlil qilish zarur. (15 - rasm).

Gipsli naqshning chiziqli-konstruktiv tuzilishini chizib bo'lgandan so'ng shaxsiy va tushuvchi soyalar, tus munosabatlari aniqlanadi.

Rasmda yorug'-soya munosabatlarini topish, soya, yarim soya, reflekslarni bajarish hamda tasvirning yaxlitligiga erishish bilan tugatiladi (16 - rasm).

Navbatdagi rozetkani chizish bosqichlarini ko'rib o'tsak:

Ish chizayotgan naturani umumiyligi ko'rinishini qog'oz yuzasiga joylashtirishdan boshlanadi. So'ng yengil chiziqlar bilan predmetning umumiyligi shakli va asosiy o'q chiziqlari topiladi. Rozetkani umumiyligi shakli bizga aylanani eslatadi, o'rtasida shar shakli, to'rt tomonidan chiqib turgan shoxsimon elementlar bo'lib ularni bir-biriga tutashtirsak to'rtburchak hosil bo'ladi. Shundan so'ng naturadagi o'lchamlarni aniqlashga o'tamiz. Naturaga diqqat bilan qaralsa uning ichida to'rtta katta barg borligini ko'ramiz, bu barglar bir-biriga qarama-qarshi tomonda simmetrik ravishda joylashgan.



17-rasm.Gipsdan yasalgan naqshli rozetkani chizish ketma - ketligi


Naturadagi asosiy elementlar o'rni aniqlangandan so'ng uning detallari aniqlanadi. Bu o'rinda asosiy element bo'lib to'rtta barg hisoblanadiki ular chizilganda barchasi bir-biriga o'xshashligini unutmaslik kerak va tasvirda ham shunga erishish zarur. Shakl to'liq, o'ziga o'xhash chiqqandan so'ngina bir bor natura bilan solishtiriladi hamda har bir elementning soya, yarim soya va soyalar belgilanadiki bu chizuvchiga kelgusidagi ish jarayonida poydevor vazifasini o'taydi. Rozetkadagi belgilangan soya-yorug'lklarning aniq ishlanishi uning hajmini yoki bir butun yaxlit tasvirini idrok qilish imkonini beradi (17- rasm).




18- rasm. Gipsdan yasalgan me'moriy detal qalamtasviri



19- rasm. Gipsdan yasalgan me'moriy detal qalamtasviri



20 – rasm.Gipsdan yasalgan me'moriy detal
qalamtasviri.



21 - rasm. Gipsdan yasalgan me'moriy model tasviri.



Gipsdan yasalgan vaza tasviri.

Rasmni bajarish har doimgidek qog'oz yuzasiga tasvirni kompozitsiya jihatdan to'g'ri joylashtirishdan boshlanadi. Joylashtirish jarayoni tasvirni yengil chiziqlar bilan vazaning umumiy ko'rinishini belgilashdan boshlanadi. Eng asosiy narsa vazaning tasviri bilan natura o'rtasidagi o'xshashlikni topishga erishishdan iborat. Umumiy shakl topilgandan so'ng vazaning konstruktiv asoslarini perspektiva qonun-qoidalariga rioya qilgan holda topiladi. Rassom pedagog P.P.Chistyakov tavsiyasiga ko'ra ko'rish bu aniq nisbatlarni topib tasvirlashdan iboratdir.

Ko'zaning o'ng va chap tomoni ham bir xil bo'lganligi sababli vazaning o'rtasidan simmetriya o'q chizig'i o'tkaziladi. Shu chiziq naturani teng ikki qismga bo'ladi va bir-biriga tengligi shu chiziq yordamida tekshiriladi. Yordamchi chiziqlar yordamida vazaning yuqori qismidan asosiga qadar chiziqlar o'tkaziladi. So'ng vazaning konstruktiv asoslarini topishga diqqat qaratiladi. Vazaning yuqorisи kesik konus va silindr shakliga ega. Ostki qismini chizishni osonlashtirish uchun geometrik jismlar shakli bilan taqqoslansa ish yengil ko'chadi.

Vaza tasviri qurilgandan so'ng uning soya-yorug'liklari aniqlanadi. Bunda vazaning yorug'lik, soya va yarim soya shu bilan bir qatorda tushuvchi soyalar chegaralari aniqlanadi. Bu o'rinda rassom Leonardo da Vinchingin "Rangtasvir haqida kitob" asaridagi maslahatni eslash joiz "eng avvalo butun shaklga yorug'lik tushmaydigan joylariga yengil tus beriladi" so'ng yarim soya va asosiy soya tushiriladi. Shaklni soya-yorug'liklar vositasida hajmini berishda kerakli joylarda qalam kuchi bilan to'klashtiriladi, yorug'lik va soya o'rtasidagi bog'liqlik, refleks va tushuvchi soyalar munosabatlari aniqlashtiriladi.

Vazaning shakli murakkab bo'lganligi sababli eng avvalo uning xarakterli joylarini ko'ra olish zarur. Bu uchun rasm chizish jarayonidagi asosiy qoida umumiylidkan – alohidilikka va yana alohidilikdan umumiylikka o'tish qoidalariga amal qilish zarur (22 - 23- rasm).



22 - rasm. Gipsdan yasalgan vazani chizich ketma – ketligi.



23 - Rasm. Gipsdan yasalgan vaza tasviri (yakuniy bosqich).


Shakli murakkab bo'lgan predmetlar qatoriga me'morchilik bo'laklari ham kiradi va bu memoriy detallardan biri bo'lgan kapitel ya'ni ustunlarning yuqori qismlarini chizishga tavsiya qilinadi. Mumtoz me'moriy orderlar doriy, taskan,

ioniy va korinf nomlari bilan ma'lum. Biz quyida ioniy kapiteli chizilishini ko'rib o'tamiz.


Kapitel me'morchilikda ishlatiladigan ustunning yuqori qismi bo'lib hisoblanadi, ostki qismi esa antablament bo'lib sanaladi. Kapitelning yuqori qismidagi gipsli taxta abaka, so'ng turit, temendan aylana gajjak qismi-volyuta, ular o'rtaсидаги oval val-exin, relefli gullar-ionika deb nomланади.

Kapitel rasmini chizish uni xayolan taxlil qilishdan boshланади. Ustun silindr shaklida bo'lib uning ustiga kesik konus to'ntarilib qo'yilgan holatni ko'rishimiz mumkin. So'ng volyutani ya'ni gajjaklarni to'rtburchakli yashik ichida deb tasavvur qilamiz. Bu holatda perspektiv qisqarishlarni ham topish oson bo'ladi. Valyutalar o'rtaсида aylana shaklidagi exinlar joylashган bo'lib yukoridagi taxtани ikki bo'lakka bo'linsa uning markazi hosil bo'ladi. So'ng ustundagi o'yiqlar bir-biridan ajralgan holda chiziladi. Ustun aylana shaklida bo'lgani uchun o'yiqlar yuqorisidan aylana shaklidagi yordamchi chiziq chiziladi va perspektiv qisqarishlarni hisobga olgan holda o'yiqlar taqsimlanib chiqiladi. Ularning o'lchami naturada bir xil bo'lsada, chizuvchida turli xil bo'ladi. Shu holatda kapitelning umumiyl qurilishi tugagandan so'ng detallarni chizishga o'tish mumkin. Chizuvchi doimiy ravishda chizish – bu o'ylash, muhokama va tahlil qilish jarayonidan iborat ekanligini unutmasligi kerak (24 – 25 – 26 - rasm).




Me'moriy detal kapitellarning boshqa turlari keyingi rasmlarda tasvirlangan (27 – 28 rasm) gipsdan yasalgan kapitellarni mato fonida yoki yoniga boshqa geometrik jiism (shar, konus va h.z.) tasvirlash juda qiziqarli va foydalidir.



24-rasm.Me'moriy detal ionik kapitel rasmini chizish boskichlari



25-rasm.Me'moriy detal ionik kapitel rasmini chizish boskichlari.



26-rasm.Me'moriy detal ionik kapitel rasmini chizish



27 - rasm. Mato fonida kapitel qalamtasviri.




28 - rasm. Mato fonida kapitel qalamtasviri.



29 - rasm. Gipsli model kapitel ishtirokida natyurmort qalamtasviri.



30 - rasm. Gipsdan yasalgan kapitel qalamtasviri.



31 - rasm. Gipsdan yasalgan kapitel qalamtasviri.

Qalamda natyurmort chizish

“Natyurmort” – fransuzcha so’z bo’lib, turli buyumlardan tuzilgan, ma’lum bir ma’noni anglatadigan kompozistiyadir. Bu so’zning aniq tarjimasini “jonsiz tabiat uyushmasi” deyish mumkin. Natyurmort asosida rasm chizish qoidalarini o’rgatish barcha badiiy maktablar usulida qadimdan rivojlangan. Bu borada Italiya, Olmoniya, Rossiya kabi badiiy akademiyalarning boy tajribasini tilga olish mumkin.

Leonardo da Vinchi, Albrext Dyurer, Chennino Chennini kabi buyuk rassomlarning klassik merosi fikrimiz dalilidir.

Natyurmort ustida ishslash jarayonida talabalar kuzatish perspektivasi orqali narsalarning konstruktiv tuzilishi, yorug’ – soya tarqalishi qoidalari haqida aniq bilim va ko’nikmalar hosil etadilar. Turli materiallar (shisha, metall, yog’och, mato va h.z. fakturasini tus orqali ifodalashga o’rganadilar. Natyurmort chizishda eng birinchi navbatda shakli aniq, ortiqcha bezaksiz, murakkab bo’lmagan buyumlarni tanlash kerak. Shundan so’ng ma’lum qoidalar asosida natyurmort tuzish kerak. Bunda tanlangan predmetlar orasidagi mantiqiy bog’lanishga jiddiy e’tibor qaratish zarur. Buning uchun natyurmortchi rassomlar bajargan ishlarning reprodukstiyalarini o’rganish juda muhimdir. Ularning natyurmortni qanday tuzganliklariga e’tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo’ladi. Predmetlarni tanlashda ularning qanday materialdan ekanligi, turli xil shakl va figuradagi predmetlar ishtiroki ishning qiziqarli va jonli chiqishiga imkon yaratadi.

Natyurmort uchun eng xarakterli narsa unda ishtirok etadigan narsalarning yagona kompozitsion markazga bo’ysunishidir.

Ish jarayonida hal etilishi lozim bo’lgan eng asosiy vazifalardan biri – naturani qog’ozga joylashtirishdir. Chunki chizilayotgan narsalar qog’ozga vertikal yoki gorizontal joylashtirilishi bilan turlich ra’isini ko’rinadi.

Tasvirlanayotgan natyurmortni puxta o’ylab, tuzish kerak juda muhim. Bunda masalan, uy-ro’zg’or buyumlari to’plami, musiqa asboblari, sport anjomlari va hokazolardan foydalanish mumkin.

Fon sifatida yaltiroq bo'limgan, bezaksiz, bir xil tusga ega bo'lgan mato ortiqcha burmalarsiz, tekis qo'yilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ishni bajarish rasm uchun asos bo'lgan tamoyil – umumiylidkan alohidalikka hamda alohidalikdan umumiylikka qaytish qoidasiga asoslanishi kerak. Ishni baholashda naturaning qog'ozga qanday joylashtirilganligi, fazodagi o'rni, perspektiv qisqarishlari hamda yorug' – soya qonunlarining to'liq hal etilganligi, nisbatlar alohida e'tiborga olinadi.

O'quv ishida muhim bosqich mato rasmini o'rganish bo'lib qolmay, burmalarning qanday shaklda ekanligini ko'rsata olishdir. Mato mebel jihizi ustiga bir uchi bilan tashlab qo'yilganda, osilib turganda yoki biron narsaga ilinib turganda yirik qatlar, turli siniqlarni hosil qilishi mumkin. Avvaligi matoning bezaksiz, sillig'ini tanlash yaxshiroq. Bu qatlar shaklini ancha umumlashtirib qabul qilishga imkon beradi. Birinchi xomaki rasmlarni kontrast kechki yorug'likda bajarish tavsiya qilinadi. Oddiy bo'z matoda shakl aniq qatlar hosil qiladi.

Ish jarayonining keyingi bosqichlarida topshiriqlarni murakkablashtirib, kiyimlar rasmini tasvirlash tavsiya qilinadi. Masalan, stulga qo'yilgan ko'ylak, dekorativ mato va hokazo. Hatto qisqa muddatli rasmda qatlar xususiyatini ifodalab, shaklni his etish, shuningdek o'zgacha xususiyatlarni ham ajrata olish mumkin.

Bunday mashqlar natijasida hosil qilingan ko'nikmalar syujet hamda dekorativ xarakterli kompozitsion topshiriqlar ustida ishslashda foyda beradi.

Qadimgi rassomlar mato rasmini chizishda mato va u joy olgan makon o'rtasidagi bog'lanish tasviriga katta ahamiyat bergenlar. Bu ishlarni bajarishdan oldin qadimgi davrlar rassomlari chizib qoldirgan rasmlar reprodukstiyalarini ko'rish maqsadga muvofiqli (32-33 - rasmlar).



32-rasm. Mato tasviri.




33- rasm. Mato tasviri.

Yorug – soya nazariyasi

Rasm bajaradigan talaba oldida tus munosabatlari, narsaning xajmini ifodalash «o’xshashligi» vazifasi turadi. Mazkur vazifani muvaffaqiyatli bajarilishi shakl va hajmni soya-yorug’ vositalari orqali ko’rsatib berilishga bog’liq. Bu uchun hajm, «shakl» tushunchasini bilishlari muhim o’rin tutadi. Barcha hajmli predmetlar uch o’lcham bo’yi, eni va balandligi orqali aniqlanadi. Demak narsaning hajmi deganda uni tekisliklar bilan chegaralangan uch o’lchamli kattaligi tushuniladi. Shakl – bu predmetning tashqi ko’rinishi, ya’ni rassom o’tirgan joydan narsaning ko’rinadigan tomonlari tushuniladi.


Shuni ta’kidlash lozimki, tasviriy san’at bilan shug’ullanadiganlar oldida asosan hajmli shakllarni ifodalash vazifasi turadi. Demak rasm chizishda hajmli shaklni tasvirlab bilish rassomning malakaviy taorgarligida asosiy o’rin



34-rasm. Geometrik jismlarni yo’nalishlari bo’yicha

egalaydi, shu jumladan bo'lajak rassom – pedagoglar tayyorgarligida ham o'rni o'zgacha. Hajmiy shaklni his eta bilish, qalamtasvirning mavjud chizish usullari xuddi mana shu vazifani bajarishga qaratilgan bo'lishi shart. 34 – rasmda gipsdan yasalgan geometrik modellarga shakl yo'nalishi bo'yicha shtrix berib hajm masalasi yechiladi.

Rasm chizadigan kishiga predmetning ko'rinaridigan shakli uning soya yorug'ligi bilan belgilanadi, ko'z orqali qabul qilingan shakl xuddi shunday rassom tomonidan rasmda takrorlanadi.



35-rasm. Yo'rug va soya taqsimlanishi. 1,3-yorug'lik, 2-shu'la, 4-yarim soya, 5-shaxsiy soya, 6-refleks, 7-tushuvchi soya.

Yorug'lik shakl bo'yicha tarqalib, eng yorug' joydan to'q soyagacha turli tusda bo'ladi. Shunday qilib, yorug'-soya degan tushuncha paydo bo'ladi. Misol sifatida yorug'lik tushib turgan silindr qaralsa, yorug'lik manbaiga qaratilgan silindrning old tomoni ko'zga yorug' bo'lib ko'rindi. Yorug'lik tushmaydigan tomoni-soya bo'ladi. Yorug'lik va soya o'rtasidagi tekislik yorug'likni to'la aks ettirmaganligi sababli yarim soya deb nomlanadi. Yorug'lik manbasiga tushadigan nurlarning ma'lum qismi natura (mazkur) holatda silindr atrofidagi narsalardan qayta natura soyasiga o'z aksini beradi. Rasmida bu «refleks» deb nomlanadi. Va nihoyat, tushgan soya mavjud. Odatda, narsalarning yorug' tomonida yaltiroq joy bo'ladi. Bu shu'la deb aytildi. Predmetlar soya-yorug' chegaralari aniq ko'rindi. Shar, silindr kabi egri tekislik jisimlarda esa soya-yorug'lik chegaralari aniq emas, yorug'lik soyaga qarab sekin xiralashgan holda o'tadi. Shuni aytish kerakki yorulik va aks tusining kuchi yorug'lik manbaing uzoq yaqinligiga bog'liq.

Xulosa qilib aytish mumkinki silindr misolidagi tasvirda barcha soyalar yorug'lik tuslarini quyidagi ketma-ketlikda joylashtirish o'rinli: yaltiroq qismi (shu'la), yorug'lik, yarim soya shaxsiy soya, aks shu'la, tushgan soya (35 – rasm).

Tahlil qilingan soya-yorug'lik tarqalishi qoidasi nafaqat oddiy geometrik jismlarni tasvirlash, balki turli materialdan (yog'och, metall, shisha va h.k.) iborat bo'lgan natyurmortlar, insonda ham, tabiat tasvirida ham qo'llaniladi. Shu bilan birgalikda atrofdagi borliqning rang-barangligi, yorug'likning turli tomondan tushishi, intensivligi yuqorida keltirilgan soya-yorug'lik qoidalari ijodiy tarzda foydalanishni talab etadi.

Ma'lumki har qaysi predmetning o'z rangi bor. Chunonchi: pomidor qizil, bodiring-yashil, limon-sariq... lekin pomidor to'q qizil, och-qizil, sabzi rang bo'lishi mumkin. Bodring och yashil, to'q yashil. Limon to'q sariqdan yashil tusli sariqgacha bo'ladi. Ochiq havoda yashagan odam yuzi bilan shaharda istiqomat qiluvchi odam yuzining tusi ham farq qiladi. Demak rangning turli tusi mavjud. Shu uchun ham qalamtasvida, rangtasvirdagi kabi tus termini mavjud. Soya-

yorug' va tus predmetni hajmini ko'rsatish uchun materialligini, fakturasini aniqlashga xizmat qiladi. Soya-yorug'lik kuchi:

Tekislikdan yorug'lik manbasining uzoqlik darajasiga, tekislikka yorug'lik tushayotgan nuqtasi (burchagi)ga, tekislikning rangi tuqligiga hamda rassomga nisbatan mazkur predmetning uzoq-yaqinligiga bog'liq.

Albatta, tabiatdagi tus munosabatlarini tulik ifodalab bo'lmaydi. Rassom oldida bunday vazifa qo'yilmaydi. Chunki borliq benihoyat rang-barang. Borliqni idrok etish uchun tasviriy san'atda tus masshtabi qabul qilingan.

Darhaqiqat, yirik narsalarni chizganda, misol daraxtni, rassom shartli masshtab orqali uning xaqiqiy o'lchami ko'rinishini qog'ozga tushiradi. Tusning shartli kuchi – bu qalamning, ya'ni qalam grafitini kuchi hisoblanadi.

Rasmda asosiy soya-yorug' joylarining chegaralari aniqlanib, tasvirlovchi barcha tus munosabatlarini eng yorug' va soya orasida joylashadi. Eng yorug' joy bu oq qog'oz, baland soya joyi qalamning to'la kuchi bo'ladi. Shu uchun hajmi ko'rsatishga tus masshtabining roli juda katta.

Tus masshtabini belgilash qo'yilgan vazifaga bog'liqdir. Tasvirlayotgan narsaning soya-yorug'ligi (hajmi shtrix va tusli shtrix tushyovka) vositasi orqali ifodalanadi. Shtrixlar pedmetning shaklini ifodalashi zarur (35-rasm).

Tabiiy yorug'likda soyalar, ayniqsa tushuvchi soyalar tarqalgan bo'lib, murakkab qo'shimcha soya, yarim tusli soyalar hosil bo'lishi mumkin.

Leonardo da Vinci shaklni tus orqali modelirovka qilishda reflekslar rolini alohida ta'kidlaydi. Bu erda olim yorug'lik tarqalishining fizikaviy qonunlarini hisobga olgan. Keyin esa tusni idrok etishning o'ziga xos psixologik ta'sirini unutmaydi «Refleks to'qroq fonda aniq ajraladi yorug' fonda esa kam. Bu turli xil to'q predmetlarni taqqoslashdirganda kam to'q predmet kishini to'qroq narsaga nisbatan qoramtil bo'lib ko'rinishiga majbur qiladi, agar turli xildagi oq

predmetlarni solishtirsak bunda oq predmet yonidagilarni o'z holatidan ham kam oq bo'lib ko'rinishga majbur qiladi.

Tus munosabatlarini o'rganish uchun quyidagi mashqni bajarish foydadan xoli emas. Format o'lchamidagi qog'ozni olib uni gorizontaliga 5-10 bo'lakka bo'ling. Har bir bo'lakka shunday shtrix beringki u oldingi bo'lakdan o'zining teng nisbatda to'yinganligi bilan ajralib tursin. Oldin 4-5 tusni ajratish so'ngra buni 10-12 qatlamgacha etkazish mumkin. Agar rassom ko'zi qancha soya-yorug'lik gradasiyasini aniqlasa, u bajarayotgan tasvirda shunga ko'p nozik yorug'-soya o'yinlari yordamida predmet hajmining ifodasi yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Yuqorida aytilganlarni, idrok qilgan talaba maqsadini tasvirda aniq ifoda etishga intiladi. Bu chizayotgan narsaga borliqqa nisbatan ijodiy munosabat bilan yondoshishda yuzaga chiqadi. Agar talaba chizayotgan borliqqa ijodiy yondoshmasa nafaqat ijodiy ishda, balki o'quv ishida ham obraz yaxlitligiga erishishi qiyin. Chizuvchi kishi har bir chizayotgan narsasidan o'ziga xos xususiyatini topa olishi kerak. Tabiatning har bir ko'rinishi, chizuvchida ijobiy yoki salbiy munosabat uyg'otadi. Tugatilgan ishni tomosha qilayotgan tomoshabin ham yuqorida aytilgan xayajonni o'z boshidan kechirishi kerak. Aks holda eng avvalo rassomni hayajonlantirmay chizilgan tasvir, tomoshabinda ham ishga nisbatan befarq munosabatni yuzaga keltirib chiqaradi.

Shu sababli talaba ishda muvaffaqiyatga erishi uchun o'zida borliqqa nisbatan badiiy ko'rish va badiiy kasbiy mahoratini rivojlantirshi kerak. Har bir talaba yuqorida aytilgan sifatlarni egallashga intilishi zarur. Biz ushbu sifatlarni qaysi yo'l bilan rivojlantirish kerakligi haqida fikr yuritamiz. Bu sohadagi yo'naliishlardan eng avvalo talaba xotira asosida rasm chizish malakasiga ega bo'lishi kerak. Rassom uchun kerakli sifatlarni tarbiyalaydigan yana bir boskich bu tasavvur asosida rasm chizishdir.

Yaxlit ko'rish inson ko'zi orqali amalga oshiriladi. Ko'z taxminan 180^0 kenglikdagi narsani ko'rgan holda faqatgina 35^0 oshmagan kenglikdagi narsalarini


aniq ko'radi. Qolgan masofadagi narsalarni u ko'zni doimiy harakati asosida ko'radi. Bizni qiziqtirgan ya'ni shu 35⁰ kenglikda ko'ringan narsalar asosiy narsa bo'lib uning yon atrofidagilar esa ikkinchi darajali bo'lib ko'rindi yoki go'yo qo'shilib ketgandek aniq ko'rindiydi. Aynan shu aniqroq ko'ringan joy kompozitsiya markazi bo'lib hisoblanadi, atrof esa uncha aniq bo'limgan holda idrok etiladi. Mana shu ko'rish jarayoni asosidagi kompozitsion tanlov rasmida ishlatalishi mumkin.

Topshiriqni bajarayotgan vaqtda talaba eng avvalo natura qaerda joylashtirilganligi, yorug'lik manbai qaysi tomondan, tabiiy yorug'lik tushyaptimi yoki sun'iymi, uning nurlari naturaning qaysi bo'laklarini yoritmoqda, bu bo'laklar yuzasi qaysi rangda yoki materialdan ishlanganligiga e'tiborni qaratishi kerak. Bu holat chizuvchida tus munosabatlarini idrok etishni yengillashtiradi, naturadagi tus birligi va asar yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ishdagagi yaxlitlikni ta'minlash, tus munosabatlari birligiga erishish uchun ba'zan naturani ko'zni yarim qisgan holda kuzatish tavsiya etiladi. Bu usul ishda yaxlitlikni saqlash hamda rasmning ifodali chiqishi uchun yaxshi natijalar beradi.

Rassom rasmning barcha unsurlari o'rtasidagi bog'lanishni kompozitsiya deb atab, bu aloqa tomoshabinga personajlar o'rtasidagi munosabatni aniqlash, mazmun g'oyasini ochish, rassom tasvirlagan vaqtdan oldin yuz berganlarni va nimalar yana sodir bo'lishini o'ylab topishga yordam beradi. Har bir aniq syujet o'ziga xos kompozitsion echimni talab qiladi. Biroq tasviriy san'atda shunday usullar mavjudki, ularni bilib va ijobiylab qo'llab rassom o'z maqsadini aks ettiradi:

Rasm asar g'oyasi bilan bog'lanmagan tasodifiy narsa bo'lishi mumkin emas. Rasmida ikkinchi darajali narsa bosh narsaga bo'ysunadi.



36-rasm. Gips modeli ishtirokida
natyurmort kompozisiyası.


Kompozitsiyaning eng asosiy qonuni deb kartinaning yagona yaxlitligini aytish mumkin. Kompozitsiyadagi barcha elementlar bir-biriga bog'liq holda bir-birini to'ldiradi, diqqat markazini tashkil etadi, bunda barcha ikkinchi darajali bo'laklar bosh g'oyaga bo'ysunadi va bu yaxlitlikni ta'minlaydi.

Bajarilgan ishda kompozitsion yaxlitlikni shunday tushunish kerakki, u chuqur o'yangan konstruktiv g'oya asosida tuzilgan bo'lsin, Agar kartina yaxlit idrok etilmas ekan u turli-tuman bo'laklarni bir-biriga «yopishtirilgan» holda ya'ni alohida alohida idrok etiladi natijada bizning xotiramizda asarning yaxlit obrazi emas bo'laklarigina qoladi.

Mukammal kompozitsiyaga erishish faqat uzoq mehnat natijasida yuzaga keladi. Bunday chizilgan tasvirdan biror-bir detalni olib tashlash yoki ko'shish mumkin bo'lmaydi. Yaxlitlik nafaqat o'zaro aloqa va kompozitsiya elementlarining bir-biriga bo'ysunishi bilan ya'ni qo'shimcha tarzda aloqa va o'zaro bog'lanishlar qonuniy va haqqoniy tarzda ifodalanishi lozim. Rassom qalamtasvida turli vositalar ya'ni – chegara chizig'i (sirtning chegarasi), shtrix, tushevka, hamda nisbatlarga rioya qilish, simmetriya, ritm, turg'unlik va harakat, shu bilan birga perspektiva qonunlariga rioya qilgan holda tasvirni ko'radi.

Qalamtasvida perspektiva

“Perspektiva” so’zi – fransuzcha bo’lib, “uzoqqa qarash” yoki “to’g’ri ko’ryapman”, yunoncha “oyna orqali to’g’ri va aniq ko’raman” degan ma’nolarni anglatadi. Umuman olganda, perspektivani tasviriy san’atning grammatikasi deyish mumkin.



37-rasm. Perspektiv tasvir.

Perspektivaga oid boshlang’ich ma’lumotni biz Anaksagor (eramizdan 500 yil oldin), Demokrit (e.a. 460-370 y), mashhur astronom Ptolomey va boshqalar ishlarini ham uchratamiz.

Uyg’onish davrining buyuk siymosi, italiyalik mashhur rassom va olim Leonardo da Vinci perspektivada uch yo’nalish borligini aniqladi. Birinchidan, bir xil kattalikdagi narsalar uzoqlashtirilgan sari, bir to’g’ri chiziq bo’yicha kichrayib borishini o’rganib, buni chiziqli perspektiva deb nomladi. Ikkinchidan, narsalarning kuzatuvchidan uzoqlashgan sari havo qatlami ta’siri ostida rangi o’zgarib borishini aniqladi. Uchinchidan, narsalarning chegaralari chizuvchidan uzoqlashishi natijasida asta-sekin xiralashib borishini kuzatdi. Ushbu ma’lumotlar asosida u “Perspektiva tasviriy san’atning rulidir” deya yozgan edi.

Ma'lumki, narsalar shakli va o'lchamining katta-kichikligi o'zgarishi ularning uzoq-yaqinligi va holatiga bog'liq. Shuning uchun qog'oz tekisligiga hajmli narsaning ifodalanishi faqatgina uning tashqi ko'rinishini chizishni emas, perspektiv o'zgarish qoidalarini tushunishni ham talab etadi. Hajmiy shaklni tasvirlash bu – tasvirlovchi, tasvirlanayotgan predmet va atrof-muhit aloqalarini aniqlash natijasidir.

Hajmli predmet atrof-muhitdan ma'lum tekisliklar, qirralari va uchlari bilan ajralib turadi. Tasvirda atrof-muhitni predmetlar va fon tashkil etadi. Predmet tekisligi – biz chizayotgan tekislikka yer, stol usti, natura qo'yadigan joy mansubdir.

Ikki o'lchamli qog'ozda (kartina tekisligi) biz predmet tekisligini ifodalash yordamida chuqurlikni, uzoq planlarni ko'rsatishga erishamiz. Atrof-muhitning elementi fon hisoblanadi. Fon tasvirlanayotgan narsaning orqa tomoni bo'lib, buyumlarni ajratib turadi. Fon tekis yoki chuqur fazo bo'lishi mumkin.


Kartina tekisligida hajmli buyumni chizganda, biz fazoviy erkinlik va chuqurlikni ko'rsatmoqchi bo'lamiz. Buning uchun perspektiva qoidalarini bilish zarur. Ular quyidagilardir: ufq chizig'i, ko'rish nuqtasi, tutashuv nuqtasi.

Ko'rish nuqtasi. Rasm chizishda ko'pincha ish to'rt nuqtadan bajariladi: yuqori yon tomon, pastki yon tomon, yuqori o'ng tomon, pastki o'ng tomon. Mazkur ko'rish nuqtalari chiziqli perspektivani aniq ko'rsatishga imkon beradi.

Ufq chizig'i (horizontal chiziq). Ufq chizig'i orqali kartina tekisligida tasvirlanayotgan predmetning o'rni topiladi. Ufq chizig'i doimo rasm chizayotgan kishining ko'zi sathidan o'tadi. Ufq chizig'i predmet tekisligini ikkiga – past va baland qismga bo'ladi.

Ufg' chizig'i o'rtasida, ya'ni to'g'ri qaraganimizda ko'rindigan barcha narsalarning o'rtasi ufq chizig'inинг **tutashuv nuqtasi** deb nomlanadi.

Rasmda bu holat yaqqol ko'rinib turibdi. Chuqurlikdagi temir yo'l, simyog'ochlar, yo'lning chetlari – barchasi tutashuv nuqtasiga taqaladi. Uzoqlashgan sari mavjud narsalar ko'zimizga kichikroq bo'lib ko'rindi. Perspektiv o'zgarayotgan narsalarning yuqori va pastidan shartli chiziq o'tkazganda, mazkur shartli chiziqlar borib ufq chizig'inining tutashuv nuqtasiga taqaladi.




38-rasm. Temir yo'l va simyogochning perspektiv ko'rinishlari.

Chiziqli perspektivaning asosiy qoidalari quyidagilardir:

1. Chizayotgan vaqtimizda biz ikki o'lchamga ega bo'lgan qog'ozda qanday qilib perspektiva qoidalariдан foydalangan holda uch o'lchamga ega bo'lgan hajmli predmetni tasvirlashni o'ylashimiz kerak.
2. Predmetlar tasviri biz kuzatayotgan joyga bog'liq holda o'zgarishini unutmaslik kerak.
3. Bir xil o'lchamga ega bo'lgan predmetlar tasvirlanayotgan bazada agar bizga yaqin bo'lsa – katta, uzoqroq borgan sari kichkina bo'lib ko'rindi.
4. Ufq chizig'i ko'z balandligidan o'tadi deb faraz qilinadi.

5. Naturadagi parallel chiziqlar gorizont chizig'ining ma'lum bir nuqtasida tutashadi.



39- rasm. Eksteryerda perspektiva holatlari.

BOB BO'YICHA NAZORAT VA MUSTAHKAMLASH SAVOLLARI:

1. Rasm chizish nimadan boshlanadi?
2. To'g'ri joylashtirish usullari.
3. Chizish uchun moslama turlari.
4. Shaklning konstruktiv asoslari tushunchasi.
5. Qalamtasvirda nisbatlar tushunchasi.
6. Qalamtasvirda perspektiva.
7. Ufq chizig'i nima?
8. Kartina tekisligi deganda nimani tushunasiz?
9. Tutashuv nuqtalari tushunchasi.
10. Chiziqli perspektiva va havo perspektivasining asosiy qonuniyatları.
11. Qalamtasvirda yorug'lik – soyalar qonuni.
12. Yaxlitlik va tus munosabatlar tushunchasi.
13. Qalamtasvirda kompozitsion yechim.
14. Rasm chizishda ketma-ketlik.
15. Natyurmort bajarish bosqichlari.
16. Qalamtasvirning borliqni haqqoniy tasvirlashga o'rgatishdagi ahamiyati.
17. Xotira va tasovvur asosida bajarilgan rasmning maqsad va vazifalari.
18. O'quv va ijodiy ishlarning farqlari.
19. Qalamtasvir tasviriyl san'at turlarining asosi sifatida.
20. Me'morchilikda qalamtasvirning ahamiyati.
21. Rasmning o'ziga xos tili, ifoda vositalari.

22. Qadimda rasm chizishga o'rgatish masalalari.
23. Qadimda inson tasviri ustidagi izlanishlar.
24. Qadimgi Yunon rassomlari ishida plastik yechim.
25. Uyg'onish davri rassomlarining rasm chizish san'atiga qo'shgan hissalari.

II - BOB. ANTIK DAVR HAYKALTAROSHLIGI NAMUNALARINI TASVIRLASH

*Kesik bosh tasviri, bosh qismini anatonik modeliga qarab chizish,
Mikelandjeloning David hayqali, bosh qismi detallarini rasmini chizish, gipsdan
yasalgan bosh (niqob) rasmini chizish, antik davrga mansub gipsdan yasalgan
odam, oyoq tovoni va qo'l panjalari rasmini chizish, gipsdan yasalgan inson
qomati rasmini chizish.*

Kesik bosh tasviri

XVIII asrda yashagan fransuz haykaltaroshi Gudon asarlari anatomiyani o'rganish bo'yicha qimmatli namunalar bo'lib hisoblanadi. Gudonning mashhur «Ekorshe»- anatomik modeli hozirgi vaqtda ham barcha badiiy ta'lim tizimlarida qo'llanilib kelmoqda.

Inson gavdasining nisbatlari qonuniyati ustida uyg'onish davrining ko'pgina rassomlari jumladan, Mantenya, Botichelli, Rafael, J.P. Lomasso, Mikelandjelo, Jan Kuzen va boshqalar ishlaganlar. Ular o'zlarining kuzatishlarini amaliy ish jarayonida muvafaqqiyatli qo'llaganlar. Mazkur kitobda keltirilgan rasmlarga qarab ularning anatomik bilimlarining juda kengligi, perspektiva, optika qonunlarini chuqur bilganliklarini ko'rishimiz mumkin.

Uygonish davri rassomlari qatorida Piter Paul Rubens (1517-1640) rasm chizishni o'rgatishda perpektiva, soya-yorug'liklar qonuni hamda plastik anatomiya bilimlariga katta e'tibor ajratgan. U o'z o'quvchilaridan nafaqat marmar haykalni chizish balki tirik tana chizishni, qaysiki bu tana tomirlarida issiq qon oqishini ko'rsatishni talab qilgan. Insonning bosh qismi tuzilish qonuniyatlarini o'rgangan holda u yosh bolalarning bosh qismini hayron qolarli tarzda xarakterli ifodalaydi.

Qalamtasvirdan II o'quv jarayoni ish rejasida antik davri haykal namunalaridan bosh qismini tasvirlash asosiy o'rinni egallaydi. Mazkur topshiriqlar tirik natura chunonchi odam boshini tasvirlashda talabalar uchun tayyorlov bosqichi bo'lib hisoblanadi. Rassom va rassom-pedagoglar tayyorlash jarayonida

bunday usul Italiya, Olmoniya, Angliya, Belgiya, Gollandiya, Rossiya markazlari (akademiya, studiya, badiiy maktablar)ning ko'p asrlik badiiy tajribaga asoslangan.




40-rasm. Gipsdan yasalgan Sokrat bosh qismini konstruktiv – anatomik bo'laklarga bo'lish tasviri.

Naturani “yaxlit ko'rish, katta shaklni ko'rish” uslublari turliligidadir. Quyida uyg'onish davri rassomlari foydalangan umumlashtirish uslubi yoki rassom pedagog P.P.Chistyakov nomlagan «obrubovka» uslubi keltirilgan. Bu uslubdan hozirgi davr rassomlari ham foydalanadilar. Bu uslubning asosiy mohiyati shaklni sun'iy ravishda biror bir geometrik shakl holiga keltirishdir. Masalan olma, anor tasvirini chizganda katta shakl shar shaklida bosh qismi tuxumsimon yoki shar holatda yelkadagi ko'llar silindr, burun shakli-to'rt qismdan iborat prizma shaklida qabul qilingan.

Bosh qismini anatomik modeliga qarab chizish


Bo'lajak rassom-pedagog faoliyatida bosh rasmini chizish eng yuqori va murakkab o'rnlardan birini egallaydi. Shu sababli kishining to'liq qomati va bosh qismini chizishni o'rganish uchun yetarli vaqt ajratilgan. Kishinig bosh rasmini yaxshi chiza bilish o'qituvchining pedagogik faoliyatida juda muhimdir. Kalla suyagini, boshning anatomiya modeli (ekorshe) rasmini chizishni o'rganishda inson boshini tasvirlashda boshlang'ich bosqich bo'lib xizmat qiladi. Bosh qismini chizishda plastik anatomiya haqidagi bilimlarni aniq egallaganligi juda katta yordam beradi. Olingan bilimlar talabaning ishga ongli ravishda yondoshishi uchun xizmat qiladi. Shu sababli rassomlar anatomik bilimlarini amaliy ishlar bilan mustahkamlaydilar. Bunda kalla suyagini chizish boshning anatomiya holatlarini naturadan, yoddan chizish kabilarni tashkil etadi.




41 - rasm. Anatomik model qalamtasviri.



42-rasm. Ekorshe. Anatomik model. Gudon. Bronza.



43 - rasm. Gipsdan yasalgan Ekorshening konstruktiv – anatomik tuzilishini topilishi.




44- rasm. Ekorshe. Anatomik model qalamtasviri.


Mikelandjeloning David haykali bosh qismi detallari rasmini chizish

XIX asrning birinchi yarmida fransuz uslubshunosi Aleksandr Dyupyui rasm chizishni o'rganuvchilar uchun bir qator gips modellar rasmini chizishni tavsiya qilgan edi. Bular quyidagilar: birinchisi gips boshning umumiyl shakli biror bir detalsiz, ikkinchisi ko'z, quloq, burunlarning umumiyl shakli asosida ya'ni, ko'z joyi shar shaklida, burun prizma va hokazo, uchinchisi yuz qismida asosiy shakllar to'liq va oxirgisi bosh qismi to'liq barcha detallar bilan birgalikdagi namunasidir. O'rganuvchi yuqorida ko'rsatilgan namunalarni chizib o'rgangandan so'ng antik davr haykaltaroshligi namunalarini chizishga ruxsat bergen.

Hozirgi davrda inson bosh qismini rasmini chizishni o'rganishda dastlab Mikelandjeloning «David» haykalini detallarini chizish asosida olib boriladi. Ular ko'z, burun, og'iz, quloq kabilardan iborat bo'lib, gipsdan taorlangan modellardir (45-51-rasmlar). Shu bilan bir qatorda o'ziga qarab tirik holatdagi qismlar: ko'z, burun, og'iz, quloqlarning turli holatlardagi rasmlarini mustaqil soatlarda, uyda chizish tavsiya etiladi.



45-rasm. Burun rasmini chizish




46- rasm. David bosh qismi detallaridan burun qalamtasviri.

(oldindan ko'rinishi)




47 - rasm. David bosh qismi detallaridan burun


qalamtasviri.




48 - rasm. Gipsdan yasalgan ko'z tuzilishi.



49- rasm. Gipsdan yasalgan ko'zni chizich




50 - rasm. David bosh qismi detallaridan ko'z
qalamtasviri.



51 - rasm. Gipsdan yasalgan qulq qalamtasviri.


Gipsdan yasalgan bosh (niqob) rasmini chizish

Rasm chizish uchun qiyofalar tanlashning ham ma'lum ketma-ketligi mavjud. Odatda monumental (umumlashtirilgan, katta - katta shakllarga ega bo'lgan) xarakterdagi haykallar boshi namunasidan chizish tavsiya etiladi. Bu talabga Yunon (grek haykallari namunalari: «Dorifor», «Gera», «Diadumen») kabi gipsli bosh namunalari talabga javob beradi. Keyinchalik murakkabroq modellar Rim haykallari Lyusiya, Vera, Senika va boshqalarni chizish tavsiya etiladi. II kursdan boshlab Yunon haykaltaroshlik san'atining «Zebs», «Gerkules», «Laokoon», «Gomer», «Apollon», Germes kabi ajoyib bosh qismi namunalaridan chizish tavsiya qilinadi.



52-rasm. Bosh niqobi tasviri.

Boshning alohida qismlarini (ko'z, burun, lab, qulqoq) chizishga o'rgatish uchun Italiya uyg'onish davrini buyuk haykaltaroshi Mikelandjelo Buonarottining «David» haykali uzoq yillar davomida o'quv qo'llanma sifatida foydalanilmoqda. Bu gipsli modellardan bosh qismini chizish topshiriqlari ham o'rganish uchun juda ham asqotadi.



53-rasm. Gips bosh va shu boshning suyagi.

Gipsli bosh namunasidan chizishni bo'lajak rasm o'qituvchilariga o'rgatishning boisi gipsli model misolida o'lcham munosabatlari konstruksiya (tuzilishi), soya-yorug' tarqalishini o'rgatishdir. Naturaning qimirlamaslik holati rassom-talaba oldiga qo'yilgan barcha vazifalari yechishga to'la imkon beradi. Tasviriy san'atning buyuk ustalari asarlarida bosh shaklining anatomik, konstruktiv

tuzilish qoidalari aniq ifodalananib, naturaning tipik qiyofasi namunali tarzda berilgan.

Yuqoridagi topshiriqlarni o'rganish mazkur haykal boshidan olingan gipsli niqob namunasi (maskasi) dan boshlanadi. Gipsli boshni chizishdan oldin ko'rish nuqtasi aniqlanishi lozim. Naturaga tushib turgan yorug'lik boshning umumiyl shakli va detallarini (soch yo'nalishlari, yuz tekisliklari va h.k.) ajratib turishi zarur. Akademik uzoq muddatli rasm bajarishda oldin boshni turli holatdagi burilishlari chizilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. (54-rasm).




54-rasm. David haykalining qalamtasviri

Yorug'lik manbai tasvirlanayotgan naturaga nisbatan yuqoriroq taxminan 45⁰ burchagida joylashishi lozim. Bunda yorug'lik shaklni aniq yoritadi. Fon iloji boricha neytral, kul rangli bo'lishi kerak. Shundagina hajm aniq ko'rindi. Albatta, mazkur tavsiya bosh rasmni bajarishga boshlang'ich bosqichlari uchun mo'ljallangan. Chizuvchining naturaga nisbatan o'tirish masofasi gipsli boshning

vertikal bo'yicha umumiy balandligiga qaraganda taxminan 3-4 marta uzoq bo'lishi kerak. Bunday masofa chizuvchi uchun naturani kuzatishda eng qulay masofa hisoblanadi. Mazkur tavsiya chiziladigan barcha narsa, naturalarga ham taalluqlidir (natyurmort, odam boshi, qomati va h.k.)

Odam boshini chizish umumiy shaklni qog'oz tekisligida topishdan boshlanadi. Shuni diqqatdan qochirmaslik kerakki boshning shakli to'g'ri va egri tekisliklar bilan chegaralangan. Mazkur tekisliklar perspektiv holatda shaklni tashkil etadi. Talabanining vazifasi har qaysi tekislikni o'rnini aniqlab, ularni holatini to'g'ri tasvirlashdadir. (55 rasm).

Ishning birinchi bosqichi, yuqorida ta'kidlanganidek, gipsli boshni qog'ozda kompozitsion nuqtai nazardan joylashtirishdan, boshning katta shaklini aniqlashdan boshlanadi. Boshning atrof-muhitdagi perspektiv holati aniqlanib uning peshona o'rtasidan iyak o'rta sigacha vertikal va ko'zlarni belgilaydigan gorizontal chiziq o'tkaziladi.



55-rasm.Gipsdan yasalgan nikob qalamtasviri. (birinchi bosqich)

Modelning umumiy balandligi va enini belgilab, yuzi, bo'yin qismini umumiy shakli chiziladi. Peshona burun, og'iz, iyak bir-biroviga nisbatan balandligi va eni ham chiziladi. Qalam qattiq bosilmasligi kerak. Chiziqlar yengil, o'chirgich bilan oson tuzatish bo'ladigan bo'lsin. Yuzning asosiy qismlarini: ko'zlar, peshona, burun, iyakni belgilaganda ularning o'lchamlarini bir- birini nisbatan solishtirilib turilishi zarur. Agar bu ish bajarilmasa, detallar proporsiya - o'lchamlari to'gri topilsa ham, boshning umumiy shakli bilan taqqoslanganda to'g'ri chiqmasligi mumkin. O'z navbatida detallar o'lchami boshning umumiy o'lchamlari bilan taqqoslanib boriladi. 56-62-rasmlarda gipsdan yasalgan odam bosh qismi nikobining yakuniy ish jarayonlari keltirilgan. Ishlab chiqilgan qoidalarni talabalar alifbodek bilishlari kerak. Bu haqda o'lchamlar bobida aytib o'tilgan. Qoshlar o'rtasidagi nuqta boshni chizishda tayanch nuqta sifatida qabul qilingan. Chunki mazkur nuqta barcha shakllarning markazida joylashgan. Shunga nisbatan ko'zlarni burun tekisliklari va boshqa detallar ham topiladi.

Ishning ikkinchi bosqichi gipsli bosh shaklini detallarini aniqroq chizishdan iborat. Rassom – talaba haykaltaroshdek, qayta-qayta katta shakllarga e'tiborni qaratishi kerak. Darhaqiqat, haykaltarosh ishni detallardan ko'z yoki burunni yasashdan emas, balki hajmni tashkil etuvchi katta tekisliklardan boshlaydi. Mazkur bosqichda yengil soya kiritilsa, tasvir yengil hajmga ega bo'ladi, ish jarayoni yengillashadi. Detallar aniqroq chiziladi.




56 – rasm. Gipsdan yasalgan niqob qalamtasviri. (ikkinchi bosqich)

Gipsli boshni chizishning uchinchi bosqichi detal, shakl va hajmni aniqlash kabi vazifadan iborat. Ayniqsa, detallarni tulik tasvirlashga, ularni shaklini boshning umumiyligiga keltirish juda ham muhimdir.


Shuni aytish kerakki qalamtasvida rasm bajarish bosqichlari shartlidir. Bu gap rangtasvirga ham taaluqlidir. Bosqich tushunchasi rasm chizishni o'rgatishda didaktik, yondashish usulidir. Rasm bajarish jarayonidagi vazifalarni yechishda bosqich usuli juda katta samara beradi. Ayniqsa bo'lajak arxitektor-rassom professional va metodik tayyorgarligida juda muhimdir.




57 – rasm. Gipsdan yasalgan niqob qalamtasviri. (uchinchi bosqich)



58 – rasm. Ufq chizig'idan pastda joylashgan gipsdan yasalgan niqob qalamtasviri.




59 - rasm. Gipsdan yasalgan David niqobining yon tomonidan chizilgan qalamtasviri.



60 - rasm. Gipsdan yasalgan David niqobining old tomonidan chizilgan qalamtasviri.



61 - rasm. Gipsdan yasalgan David niqobining yon tomonidan chizilgan qalamtasviri.




62 - rasm. Gipsdan yasalgan bosh niqobi qismini chizish

Antik davrga mansub gipsdan yasalgan odam bosh namunasi qalamtasvirda tasvirlash

Odam boshining gips nusxasi – tasvirlashning eng og'ir ob'ektlaridan biridir. Bunday ob'ekt fazoda simmetrik bo'lib, xuddi shunday assimetrik gruppalarga birlashuvchi bir qancha turli xil shakldagi detallarni o'z ichiga oladi.


Bunday xilma-xillikning uddasidan chiqish maqsadida modelni o'qishning odatdagi usulini o'zgartirish foydalidir. Masalan, ishni boshlashdan avval dastlab o'r ganilgan bosh tashqi shakli sxemasining tasvirini tanlangan nuqtai nazardan naturachiga o'xshatib chizish mumkin. Bu model chiziqlarini ongli ravishda tahlil qilishga va shakllantirishga, shu bilan birga relefning biror detalini unutib qoldirmaslikka yordam beradi. Ammo naturaga qarab chizilgan qalam tasvirda aniq shaxs sxemadan qanday ajralib tursa, xuddi shunday o'xshashlik bo'lishi talab qilinadi. 63 a – rasm.



63- a rasm.Gipsdan yasalgan bosh qismini chizish bosqichlari.

Qalam tasvirda bevosita kuzatiladigan shakllarni hajmiy tasvirini ko'rsatish paytida u xuddi tekislikdagi singari bo'lmasdan, balki hajmiy ravishda chizilgan yoki rasmga olingandek bo'lishi lozim. Uyg'onish davrining rassomlari aniq tasvirni qayta tiklash uchun har xil modifikastiyali maxsus moslamalarni qo'llab kelganlar. Uning oddiy varianti – model oldida o'rnatilgan romdag'i shishadir. Ushbu usul o'zgarishsiz qolgan. Rassom derazadan maxsus mo'ljaldan qarab, narsaning ko'ringan konturlarini shisha ustida mo'yqalam bilan chizgan.

Ushbu moslamalar hozirgi zamon fotoapparatning rolini bajargan. Proeksion surat bu fotografik, ya'ni oddiylashtirilgan suratdir. Suratni oddiylashtirish yo'lidagi keyingi qadam - diqqatni uning mazmuniga tortmaslikni talab qiladi: bizning oldimizda odam boshi turganligini unutishimiz, ko'z oldimizga abstrakt suratni keltirishimiz kerak, ya'ni tekislikda tasodifiy dog'lar uyumi turganday bo'lsin. 64 b - rasm




64- b rasm. Gipsdan yasalgan bosh qismini chizish bosqichlari.

Uchinchidan, bu rasm bir xil rangga bo'yalgan uch qismga bo'linishi va uning abstrakt mozaikaga aylantirilishi talab qilinadi. Keyin qalam tasvirning hoshiyalarida chizilgan anatomik sxemalarga orientirlanib, hajmiy tasvirni qayta tiklash uchun mozaika bo'laklarini aniq hajmli shakllarga (yuz suyagi, iyak, peshana va boshqa shakllarga) birlashtirish kerak. Ishning oxirida odatdagi, hajmiylik va mazmunli taassurot olish usuliga qaytish va gips modelini uning tasviri bilan solishtirish mumkin. Endi model tasviri hajmiylik taassurotini qoldiradi.

Shunday qilib, davomli qalam tasvirining chizilishida asosiy qiyinchilik alohida texnika yoki qo'l chaqqonligiga bog'liq bo'lmasdan, balki ish jarayonida uquv usullarini almashtirib turish qobiliyatiga bog'liqdir.

An'analarga ko'ra, davomli qalam tasviri ustidagi ish jarayoni bir necha bosqichga bo'linadi.

1. Joylashtirish. Qalam tasvirni varaqda shunday joylashtirish kerakki, bir tomonidan varaq to'lsin, ikkinchidan, ob'ekt tasviri varaq chegarasidan chiqmasin, chetlari bilan kesilmasin. Ushbu vazifa osongina quyidagicha bajariladi: ishni boshlashdan oldin 5 sm kenglikdagi hoshiyalar belgilab olinadi; tasvir hoshiyalar chetidan o'tib ketsa ham, varaq chegarasida qoladi. Yana bir usul havola qilinadi: harakatlanadigan yupqa taxtachasi bo'lgan ramka kartondan manzara izlovchi (videoiskatel) tayyorlanadi. Videoiskatel orqali tekis fotografik tasvirini ko'rish mumkin. Varaqda uning o'lchamlariga teng proporsiyalarda to'rtburchak belgilab olish kerak. Aniqroq joylashtirish uchun modelning umumiylarini sharpasini chizish lozim.




65- v rasm.Gipsdan yasalgan bosh qismini chizish bosqichlari.

2. Chizish. (siluet) sxemasi. Ushbu va keyingi bosqichlarda modelni abstrakt rasm sifatida o'qish kerak. Konturlar yo'nalishini o'zgartirgan joylarida fikran to'g'ri chiziqlar bilan birlashgan va ko'pburchak hosil qiladigan 3-5 nuqta ajratiladi. Ko'pburchak qog'ozda burchaklarda kesishadigan jo'n to'g'ri shtrix chiziqlar bilan tasvirlanadi. Ushbu umumiyligining taxminiy xarakteri, ya'ni simmetriyasi, asimmetriyasi, zichligi yoki cho'zilganligi, qiyaligi aniqlanadi.

3. Detallashtirgan holda chizish. Tashqi konturida yoki siluet ichida keyingi nuqta yoki bir qator xarakterli nuqtalar belgilab olinadi. Ular xuddi shunday to'g'ri chiziqlar bilan tekis figuraga birlashadi.

Tasvirni chizish jarayonida qalam tasvirning anatomik sxemaga mos kelishini vaqt-vaqt bilan, doimiy tekshirib turish kerak. Bu erda quyidagi didaktik usullar qo'llaniladi:

- simmetrik nuqtalarni topish va ular orasida parallelilik aloqasini tekshirish;



66 –g rasm. Gipsdan yasalgan bosh qismi qalamtasviri.

- simmetrik tekisliklarni topish va ular orasidagi farqini aniqlash;
- yon tomonlaridagi chiziq ustidagi (peshana, qanshar, burun o'rkachi, uchi va to'siqi, yuqorigi va pastki lablar, iyak, til tagi doirasi hamda hiqildoqning oldingi yuzalari) tekisliklarining o'zaro bog'lanuvchanligini tekshirish;
- bundan oldin o'r ganilgan anatomik sxemaga o'xshatib, barcha tashqi shakllarning konkret ko'rinishini va joylashgan o'rnini belgilash. 95 v- rasm.

4. Umumlashtirish. Chizishni boshlash bosqichida tonlar chegaralari ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Buning uchun naturani abstrakt tekis mozaika, bir xil me'yorda ranglangan nuqtalar kabi ko'rish kerak. Ushbu mozaikaning har qaysi alohida bo'lakchasini rang bilan to'ldirish texnikaviy juda oddiy vazifadir. Chegaralari belgilangan tekislikni qalamning yon tomoni bilan qoralash yoki tekis shtrix chiziqlar bilan to'ldirish mumkin.

Tonal modellashtirishni boshlaganda qoralash usulini qo'llash afzaldir. Birinchidan, bunda ton chegaralari keskin bo'lib qolmaydi. Ular chizilishning jo'n (va bir qancha yuvilgan) chiziqlari bilan sekin-sekin qo'shilib qoladi. Naturaning tugatilganlik alomatlaridan biri – konturlarning yo'qligidir. (66-g rasm)

Ikkinchidan, qoralash ishlari shtrixlashdagi kabi e'tiborni bir joyga qo'yishni talab etmaydi. Bu yerda e'tibor boshqa narsa uchun talab qilinadi: har bir tekislikning nisbatan yorug'ligrini belgilash zarur. Mozaikaning bo'laklarini birin-ketin ranglagen paytda tonlarni juda oson almashtirish mumkin. Bunday holatlardan soqit bo'lish maqsadida tonlarning oqishligi bilan yaqin bo'lgan gruppasini darhol belgilab olish lozim. Masalan, eng qoramtlirlari, o'rtal tonlar, oqimtir va eng oq tonlar.

Aytib o'tish joyizki, ishonarli amaliy tasvirga ega bo'lish uchun och rang bo'yicha ton tovlanishi unchalik ko'p talab qilinmaydi. Umumlashtirilgan yorug' va soya sxemasi oltita elementdan tashkil topgan: blik (aks), yorug'lik, yarim soya, soya refleks, tushuvchi soya. Amaliyotda o'nga yaqin (yoki ozgina ko'proq) tuslar talab qilinadi.

Tusli modellashtirish bosqichida, chizilish davomidagi singari, qalam tasvirining anatomik sxemaga muvofiq ekanligini vaqt-vaqt bilan, doimo tekshirib turish zarur.

Tekisliklarning tuslar bilan aloqasi chizilish bosqichidayoq belgilanishi mumkin, har qaysi shaklning qoramirroq tekisliklari juda ochiq rangdagi jo'n shtrixlar bilan to'ldiriladi. Juda oddiy misol, tekisliklarning tonlar bilan aloqasining tasviri – kub rasmidir.

Qalam tasvir foni alohida muammoni tashkil etadi. Qo'yiladigan fon xarakteri kuzatish nuqtasiga bog'liq ravishda o'zgaradi. Tasodifan ko'zga tashlangan interyer detallarining nusxasini olishning ma'nosи yo'qdir. Shuning uchun ko'pchilik hollarda naturachiga bog'liq bo'limgan ravishda qalam tasvirda foydaliroq fon yaratish mumkin.

Eng oddiy variantlaridan biri quyidagichadir: bir tekisda ranglangan kul rang tekislikdir. Bunday fon ochiqligi bilan boshning yorug' qismi, umumiyl tusi va soyalarning umumiyl tusi orasida o'rtacha bo'lishi lozim.


Ikkinchi variant: yoritilgan yuza ustida qoramirroq fon yaratiladi, hamda modelning soyalashtirilgan qismida fon tekisligi asta-sekin oqartiriladi. Bu holda model va fon orasida kuchli kontrast tashkil qilinadi. Ammo birinchi holatda ham, ikkinchisida ham fon diqqatni jalb qilmasligi kerak Shuning uchun fon ustida uzun, keskin ajralib turadigan shtrixlarning va qandaydir g'ayri-tabiiy shakllardagi shtrixlarning (masalan, yoysimon shtrixlarning), xar xil ochiqlikdagi tasodifiy dog'larning paydo bo'lishidan voz kechish lozim. Bir gap bilan aytganda, fonda relyef ham, faktura ham kerak emas. Tasodifan paydo bo'ladigan ochiq rangdagi dog'lar bir tomonga yo'naltirilgan yoki bir-birini uncha katta bo'limgan burchak orqali kesib o'tgan qisqa shtrixlar bilan bartaraf etiladi. Qoramirroq dog'lar o'chirg'ich bilan ohista tegizib, oqartiriladi. Tuslarni faqat fon ustida emas, balki model qalam tasvirining detallarida ham, dastlab qoralangan tekislik ustidan aniq qisqa shtrixlar qo'yish bilan ravonlashtirish mumkin. Bu esa rasmga tugatilganlik ko'rinishini beradi.

Gipsli bosh detallarini chizganda yuzning har qaysi qismi o'z shakliga ega bo'lganligini e'tibordan chiqarmaslik muhim. Misol, burunning umumiyl hajmi to'rtta tekislikni tashkil etadi. Pastdagagi tekislikda burun qanolari, teshiklari, burunning uchi hisoblanadi. Har qaysi detalning o'z shakli bor lo'nda, o'tkir, o'tmas. Peshonaning pastki qismi-qoshlar usti beshta tekislikni tashkil etadi va h.z. Shuni yodda tutish kerakki, boshning ko'p shakllari paralel bo'ladi. Paralel shakllarni alohida tasvirlash to'g'ri emas. Perspektiv nuqtai- nazardan ular birga chizilishi kerak, misol uchun ikkita ko'z, qulqlar, peshona suyaklari. Soya yorug'liklari mazkur bosqichda to'liq ishlanadi. Soya-yorug'lik tarqalishini ifodalashda detallarni katta shakl bilan bog'liq tarzda tasvirlanadi. Albatta, bu yerda tus nisbatlariga katta e'tibor beriladi. Gipsli boshni tasvirlashda shakl va hajmni ifodalashda shtrix vositasi qo'llanishi lozim. Yakunlovchi bosqich ishning


tahlili va umumlashtirilishiga bag'ishlanadi. Maqsad shundan iboratki, bajarilgan rasm qo'yilgan narsaning hajmi va shaklini tulikroq ifodalashi, naturadek yaxlit ko'rinishini tashkil etishi kerak. Tasvirni natura bilan taqqoslay olish o'zi qilgan xato kamchiliklarini topa bilish-bo'lajak rassomning xususan pedagog uchun juda muhimdir. Talaba qo'yilgan gipsli boshni qog'ozda chizilgandek tasavvur eta bilsa, ishini natura bilan taqqoslashi kamchiliklarini tugatishi oson bo'ladi.

Shuni ta'kidlash o'rinniki, rasm bajarish bosqichlari soni naturaning murakkabligi va tasvirlovchi o'z oldida qo'ygan vazifaga bog'liq.


Rasm bajarishda talaba eng asosiy ikki xususiyatni esdan chiqarmasligi zarur. Bulardan birinchisi umumiylid dan xususiylikka ya'ni detallarga o'tish prinsipidir. Bunda chiziladigan predmetlarni eng avvalo detallarsiz, umumiyl shakli to'liq olinib, so'ng mayda elementlarni bajarishga o'tiladi (100-110- rasmlar). Ikkinci xususiyat alohidalikdan umumiylikka qaytishdir. Chizilgan alohida detallarning umumiyl shaklga nisbatan holatlari, soya – yorug'lilik vositasida chiqarilgan hajmiy holatni yaxlit ko'rinish holiga keltirishdir.




67 -rasm.Sokrat bosh qalamtasviri.




68 - rasm. Sokrat bosh qismining old tomondan qalamtasviri.




69 - rasm. Sokrat bosh qismining yon tomondan qalamtasviri.




70- rasm. Sokrat bosh qismining 3/4 qalamtasviri.




71- rasm. Gips boshni oldindan




72- rasm. Gips boshni 3/4 ko'inishdagi qalamtasviri.




73 - rasm. Gipsdan yasalgan boshning yon tomoni qalamtasviri



74 - rasm. Gipsdan yasalgan boshni old tomondan qalamtasviri.



75 - rasm. Gipsdan yasalgan boshning yon tomoni qalamtasviri



76 - rasm. Gips boshni 3/4 ko'rinishdagi



Oyoq tovoni va qo'l panjalari rasmini chizish

Inson qomati plastikasini mukammal o'rganishda inson qo'li va oyoqlarini chizishni o'rganish juda muhimdir. Ko'p yillik ish tajribasi shuni ko'rsatadiki, talabalar inson qo'lini va oyog'ini chizishda ancha qiynaladilar. Shu sababli badiiy ta'lim tizimida gipsdan yasalgan qo'l va oyoqning rasmlarini chizish qo'llaniladi.

Turli davr rassomlari qo'l panjalari tasviriga katta e'tiborni qaratganlarki bu bilan ular insonning fizik va emotsional holatini ochib berishga erishganlar.



77-rasm. Gipsdan vasalgan qo'l panjalari

Qo'l panjalari rasmini chizganda har bir kishi uchun alohida o'ziga xos ko'rinishga ega ekanligini hisobga olish zarur. Qo'l panjalariga qarab portret tasvirida biz insonning ijtimoiy holati, yoshi va emosional xususiyatlarini anglab olamiz. Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek qo'l panjalari o'ziga xos plastik xususiyatga egadir.



78-rasm. Oyoq panjalari qalamtasviri

Qo'l va oyoq rasmini chizganda doimo umumiylid dan xususiylikka qarab borish prinsipiga rioya qilish zarur. Gips qo'l va oyoq modellarni chizib o'rgangandan so'ng tirik qo'l va oyoq panjalarini turli holatda chizishni o'rganish kerak.

Rasm bajarishda talaba eng asosiy ikki xususiyatni esdan chiqarmasligi zarur. Bulardan birinchisi umumiylid dan xususiylikka ya'ni detallarga o'tish prinsipidir. Bunda chiziladigan predmetlarni eng avvalo detallarsiz, umumiyl shakl to'liq olinib, so'ng mayda elementlarni bajarishga o'tiladi. Ikkinci prinsipimiz bu xususiylikdan ya'ni detallar ishlovidan so'ng yana umumiylid qaytishdir. Umumiylid da detallar ishlashga o'tilganda har bir bo'lak alohida ishlanadi. Ish jarayonida detallar ishloviga e'tibor berilib yaxlitlikni unutmaslik lozim. Bu

prinsipning muhim tomoni ham shuningdek, detallarni har birini boshqasiga solishtiramiz, soya-yorug'liklar nisbatini tekshirishimiz mumkin. Bu tasvirlayotgan narsamizning har bir detali qo'shilib yaxlitlikga xizmat qiladi.

O'qituvchi qalam tasvirni vaqtidan oldin detallashtirishdan saqlab qolish uchun o'quvchilarning ishini kuzatib borishi shart; shu bilan shaklning katta qismlarini chizish kerakligidan ularning diqqatlari chalg'ishidan saqlaydi.


Gipsdan yasalgan inson qomati rasmini chizish.

Odam qomatining gipsdan yasalgan modelini chizishni old tomon bilan turgan vaziyatdan boshlash kerak. Chizish bo'yicha ishlar har doimgidek figurani qog'oz yuzasida joylashtirishdan boshlanadi.

To'g'ri joylashtirish haqida rus rassom – pedagogi P. Chistyakovning ajoyib so'zlari bor: "Birinchidan va eng asosan odam qomati tegib turgan planga e'tibor berish kerak. Masalan, poldagi izlar, Ularning joylarini va ularga tegishli bo'lgan barcha narsalarni to'g'ri chizmasangiz, ushbu qomatni to'g'ri chiza olmaysiz". Oyoq izlar va ular orasidagi masofa oyoqda turgan tana uchun tayanch maydoni bo'lib hizmat qiladi.

Tik turgan odam figurasininig tayanch og'irligi tayanch maydoni orqali o'tganda mustahkam bo'ladi. Odamning eng muvozanatsiz vaziyati bir oyoq uchida turgan vaziyatidir, chunki bunda tayanch maydoni eng kichik bo'ladi.

Gipsdan yasalgan odam qomatini chizish yengil chiziqlar bilan tayanch og'irligini belgilashdan boshlanadi. U qomat uzunligini ikkiga bo'ladi. Odam qomatini chizganda baland, o'rta va past bo'yli qomatning nisbatlari va uning uzunligi bo'ylab boshining necha marta joylashishi haqida, shuningdek, erkak ayol va bola gavdalari nisbatlarining farqini bilish muhim ahamiyatga ega.



79 – rasm. Gipsdan yasalgan inson qomatini chizish namunasi.

Odam gavdasi chizilganda qomatning o’rta chizig’i xuddi boshning o’rta chizig’i kabi katta ahamiyatga ega. Juft shakllar chizilayotgan vaqtda o’rta chiziq belgi bo’lib xizmat qiladi. Orqa tomondan chizgan vaqtda o’rta chiziq vazifasini umurtqa pog’onasini bajaradi. Ikki oyoqqa tayanib turgan odam gavdasining tos suyaklari gorizontal vaziyatda bo’ladi . Tana og’irligi bir oyoqqa o’tkazilganda tos og’irlikdan soqit bo’lgan oyoq tomonga egiladi.

Gispdan yasalgan qomat modellarini chizganda yon tomondan chizish tavsiya etilmaydi. Chunki bu nuqtai nazar juft shakllarni chizishga imkon bermaydi.

Gipsdan yasalgan qomat qalamtasvirini chizishda quyidagi didaktik usullarga e’tibor berish kerak:

- simmetrik nuqtalarni topish va ular orasidagi parallelilik aloqasini tekshirish;
- simmetrik tekisliklarni topish va ular orasidagi farqni aniqlash;
- barcha tashqi shakllarning aniq ko’rinishi va joylashgan o’rnini to’g’ri belgilash;
- modelni chizganda plastik anatomiya bilimlarini qo’llash ;
- naturaga va chizilayotgan rasmga tez – tez nazar solib, ularni qismlari bo’yicha va butunligicha solishtirib turish;
- gipsdan yasalgan model yagona och lokal tusga ega bo’lib, bu tus o’z navbatida bir necha tusga bo’linadi va tus chegaralari qo’shilib keskin bo’lib qolmaydi;
- qomatni avval jo’n shtrixlar yordamida soya- yorug’liklari belgilanib shakl asta sekin kuchaytiriladi yoki pasaytiriladi.



80 - rasm. Gipsdan yasalgan anatomik model qalamtasviri.

Bob bo'yicha nazorat va mustahkamlash savollari

1. Bosh qismining nisbatlari.
2. Gipsdan yasalgan ko'zni chizish bosqichlari.
3. Gipsdan yasalgan burunni chizish bosqichlari.
4. Gipsdan yasalgan boshni chizishda konstruksiya tushunchasi.
5. Gipsdan yasalgan boshni chizishda anatomik qismlarga bo'lish.
6. Ekorsheni chizish qoidalari.
7. Odam gavdasi nisbatlari.
8. Gipsli yuz niqobini tasvirlash.
9. Anatomik gips modelini tasvirlashdan maqsad.
10. Gipsdan yasalgan modellarni tasvirlashda materiallikni berish.
11. Kesik bosh tasviri.
12. David gipsli modelini tasvirlash.
13. Gudon modeli.
14. Oyoq tovoni va qo'l panjaralarini tasvirlash.

III-BOB. ESKIZ VA QISQA MUDDATLI RASMLAR

Qisqa muddatli rasmlar bajarish, bob bo'yicha mustahqamash va nazorat savollari

Qisqa muddatli rasmlar bajarish

O'quv rasmi badiiy grafika fakultetlarida asosiy fanlardan biridir. Ta'lif maqsadi esa pedagog – rassomni tayyorlash, unga tasvirlashning barcha qonuniyatlarini o'rgatishdan iboratdir. Ta'lif jarayonida olingan bilim va ko'nikmalar o'qituvchiga pedagogik faoliyat bilan bir qatorda tasviriy san'at bo'yicha ijodiy ish olib borishga imkon beradi. Ta'lif asosini naturadan davomli, ko'p seansli rasmlarni bajarish tashkil etadi. Biroq qisqa muddatli rasmlar – narsaning asliga qarab chizishlar, xotira va tasavvur bo'yicha rasmlar ustida ishlash ham muhim. Qator o'quv vazifalarini bajarishda xomaki chizgilar yordamchi rol o'ynab, ayni paytda rasm texnikasini egallashda alohida o'rinn tutadi: ular rassom – pedagogning g'oyaviy-badiiy dunyoqarashini ma'lum darajada boyitadi. Qisqa muddatda bajarilgan rasm naturani ifodalashda ixchamlikni, shaklni umumlashtirib berishni talab etadi. Xomaki chizgilar ustidagi ish kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, naturani yaxlit qabul qilish qobiliyatini tarbiyalaydi, texnik ko'nikmalarni egallashga yordam beradi. Xomaki rasmlarni bajarish jarayoni naturadan chizishga asoslansa ham, uning asosida modelni mexanik chizib olish turmaydi. Bu jarayon predmetlar va tabiat hodisalarida timsoliy umumlashtirishni ham o'z ichiga oladi. Turli munosabatlarni, atrof-muhitning tipik xususiyatlarini ifodalash ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

Xomaki chizgilar va tez rasm solishlar turli vazifalarni bajarishni nazarda tutadi. Ular davomli rasm uchun yordamchi mashqlar hisoblanib, davomli o'quv ishidan oldin keladi, shuningdek, mustahkamlash va o'rganilgan materialni tekshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qitish jarayonida ham, ustalar amaliyotida ham xomaki rasmlarning ijodiy ish sifatidagi o'rni beqiyosdir.

Xomaki rasmlar va rasm solishlar ishida doimo aniq vazifalarni bajarish nazarda tutiladi. Agar biron bir harakatni timsoliy qayta tiklash kerak bo'lsa (masalan, mehnat jarayonini), rassom harakatdagi naturani faqat bir necha chiziqlar bilan ifodalashi mumkin. Agar modelning ma'lum yoritilishi yoki yorug' – soyali kontrastlarni berish talab etilsa, yumshoq qalam imkoniyatlarini qo'llab, asosiy tus munosabatlariga diqqatni kuchaytirish kerak bo'ladi. Bu jarayonda oldindan qog'ozni vertikal yoki gorizontal joylashtirishni va naturaga nisbatan qanday o'lchamda rasm solishni hal qilish kerak.

Odatda, xomaki rasmlar katta bo'limgan o'lchamda qilinadi. Chizgilarini, ulardan bir nechtasini bir qog'ozda joylashtirish mumkin. Hatto juda kam vositali, bir necha chiziqlar bilan bajarilgan xomaki rasm ham kompozitsiya ustida ishlashda yordamchi material bo'lib xizmat qilishi mumkin. Uni hech qanday surat almashtira olmaydi, chunki u naturadagi eng asosiy, eng xarakterli xususiyatlarni o'zida aks ettirmaydi. Rassom xomaki rasmida ko'rilmagandi taassurotini ifodalagandan so'ng, u rassomning ko'z xotirasida mustahkam qoladi.

Reja bo'yicha xomaki chizgilarga ma'lum o'rinni ajratilgan. Bunday xomaki rasmlar yaratishning asosiy vazifasi turli predmetlar va naturaning xarakterli shakllarini ifodalashda bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishdir. Rassom xomaki rasmning qator qonuniyatlarini o'rganib, tez rasm tasviri vositalarini qo'llab, o'zining naturaga bo'lgan munosabatini aks ettirishga harakat qiladi. Xomaki rasmida timsoliy badiiy umumlashtirish naturani o'rganish vositasi ham bo'ladi. Shuning uchun xomaki rasm san'atida o'rgatish va yaratish jarayonlari yaqindan bog'langan. Rassom chiziqlarning tasviri imkoniyatlarini egallab, ularni predmet va tabiat hodisalarini timsoliy tasvirlash uchun qo'llashi mumkin.

Xoh davomli rasm bo'lsin, xoh qisqa muddatli rasm bo'lsin, o'quvchi o'z diqqatini naturani hajmli fazoviy qabul qilishga yo'naltirishi kerak. Predmetlarning hajmli shakllarini, ularning konstrukstiya tuzilishini tushunmay, u yoki bu shaklni savodli chizish mumkin emas. Odamning plastik anatomiyasini, gavdasining konstruktiv asosini o'rganib, bu bilimlarni rasm ustida ishlashda qo'llash kerak.

Shakl to'g'risida yaxlit tasavvurga ega bo'lmay turib, uning ko'riniq turuvchi qismlarini to'g'ri tasvirlashga erishish qiyin. Binobarin, odam boshini uch qismiga burilgan holda tasvirlashda – quloqni to'g'ri joylashtirish uchun chizuvchi ko'ziga ko'rinxaydigan boshqa quloqning joylashish o'rnini tasavvur eta olish zarur.

Talaba rasm chizishda asosiy tus munosabatlarini berib, shu bilan birga naturani yuzaki ko'rishi kerak emas. Davomli o'quv rasmlari ustida ishslash davomida talabalar "uch o'lchamlilik", "hajm", "yorug'lik – soya", "tus", "chiziq", "proporsiya" kabi tushunchalarni chuqur o'rganish, shuningdek, rasmni izchil bajarish uslubini egallash imkoniga ega bo'ladilar. Bu bilimlarning hammasini qisqa muddatli rasm ustida ishslashda ham qo'llash zarur. Xomaki rasmida bularning hammasi tuplangan holda keladi hamda rasm chizuvchidan diqqatni bir joyga toplashni talab qiladi. Bu, tabiiyki, talabalar ishini murakkablashtiradi.

O'quvchi asta-sekin tasvirlanayotgan shaklni ixcham va ifodali beruvchi fazoviy chiziqlarni aniqlab oladi. Bu chiziqlar tajribali rassom qo'lida yoritish va shakl xarakteriga qarab ish davomida o'zgaradi: bir joyda kuchayadi, boshqa joyda kuchsizlanadi, ba'zan yaqinlashadi, ba'zan uzoqlashadi yoki ishlatiluvchi materialning bor kuchida namoyon bo'ladi.

Shtrix chizig'inining turlicha bo'lishini ta'minlash xomaki rasmlarda hajmli shakllarni ifodali tasvirlashning asosiy vositalaridan biridir. U plastik va fazoviy masalalarni echishga imkon beradi.

Xomaki rasmning xususiyati chiziqning dalilliligi va ifodaliliginu talab etadi. Ortiqcha mehnat sarf qilingan va bo'sh chiziq xomaki rasmni quruq, jonsiz tasvirga aylantiradi. Talabalar rasmida chiziq shaklini o'rganish bo'yicha ishning murakkab ekanligini his etishlari, predmetlarning tashqi chiziqlariga ortiqcha e'tibor qaratmaslik kerakligini bilishlari kerak.

Rasmida chiziq hajmni ifodalash vositasi bo'lib, unga to'liq rasm bog'liq bo'ladi. P.P.Chistyakov: "Kimki shaklni ko'rmasa, chiziqlarni to'g'ri chiza olmaydi" deya o'rgatar edi.

Ishlatilayotgan materialning qog'oz yuzasiga ta'sir kuchiga bog'liq bo'lган ifodali shtrix – chiziq uning plastik xarakterini aniqlab, shakl bo'yicha borishi kerak. Xomaki rasmlarda yorug'lik – soya munosabatlarini juda kam, faqatgina shaklning eng asosiy joylarida berish mumkin.

Agar xomaki rasmida tasvirlanayotgan natura tus munosabatlarini yoki siluetini berish talab etilsa, asosiy ish tasvirning ba'zi joylarini shtrixlash yordamida bajariladi. Tasvirda tus yechimini hal qilishda u yoki bu joyning absolyut tus kuchini ko'rsatishga intilmaslik lozim. Yoritilgan yuzalarning soyaga nisbatan olinganlariga qarab nisbatini aniq tasvirlash lozim. Bundan tashqari, xomaki rasmlar, odatda, fonsiz beriladi. Bu tasvirga qandaydir shartlilik kiritadi, shuning uchun ular naturada bo'lган tus munosabatlarining aniq berilishiga xalaqit qila olmaydi.

Uzoq muddatli rasmida tusni aniqlash ustidagi ish asta-sekin olib borilsa, xomaki rasm asosiy tus aksentlarini tez aniqlashni talab etadi. Tus yechimi tanlangan qog'ozning turli navlari, devor gul qog'ozlarining teskari tomonida sinab ko'rildi. Qog'ozning tanlanishi, odatda, ishlatilayotning material xususiyatlariga bog'liq. Rasm uchun eng keng tarqalgan material grafit qalamidir. Xomaki rasmlar va chizgilarda ishni qalamning shartli "M" turidan boshlash va yuqori yumshoq qalamlarni ishlatish qulayroq. Qattiq grafit qalam ko'pincha mayda detallarni tasvirlashda ishlatiladi.

Xomaki rasmning qisqa muddatliligi tufayli o'chirg'ich ko'p ishlatilmaydi. Xomaki rasmlar uchun "Retush" №1,2 yaxshi material hisoblanib, tuslarni ifodalash uchun qulay, yaltiramaydi va deyarli barcha qog'oz navlarida ishlatilishi mumkin. Rasm uchun o'ziga xos material kuydirilgan yog'och ko'miri bo'lib, ishlatishga qulaydir. U yirik yuzalarni umumiy hal etish, shunungdek, predmet shakli ancha mayda joylarni tasvirlashga imkon beradi. Ko'mir turli yog'och jinslardan tayyorlanuvchi ingichka tayoqchalardan iborat. Ko'mirni o'chirish va ortiqcha qorong'i joylarini rasmida susaytirish uchun oq non ushog'i ishlatiladi. Oddiy o'chirg'ich esa shtrixlangan yuzaning ifloslanishiga olib keladi. Ko'mir

bilan ishslash uchun dag' al yuzali qog'oz navlarini qo'llash yaxshiroq. Bu holda kulrang o'rash qog'ozi va devor gul qog'ozining teskari tomonidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yorug' joylarni bajarish uchun ba'zan bo'r ham ishlatiladi. Uni o'ta ehtiyyotkorlik bilan faqatgina eng yoritilgan joylarda ishlatish mumkin. Bo'rdan ortiqcha foydalanish kerak emas, chunki bu tajribasiz rassom ishida tashqi ta'sirlarning ko'payishiga, rasm savodliligining pasayishiga olib keladi.

Vositalardan biri yog'sizlantirilgan, biroz suv qo'shib suyultirilgan sigir sutidir. Rasm gorizontal qo'yilib, purkagich yordamida uning ustiga fiksativ sepiladi. Mustahkamlovchi sifatida elim yoki jelatinning juda kuchsiz eritmalarini ham tavsiya etish mumkin.

Ko'mirning barcha afzalliklariga qaramay, undan ko'p foydalanish yaramaydi. Chunki uning maydalanib ketishi, hosil qilinuvchi shtrix fakturasining alohidaligi ma'lum darajada u yoki bu shaklni tasvirlashda aniqlikni talab etuvchi so'o'quv vazifalaridan diqqatni olib qochadi.

Xomaki rasmida sangina ancha kam ishlatiladi. Uni rasmida ma'lum tajribaga ega bo'lgandagina qo'llash mumkin. Sangina – jigarrang, moyli bo'r. Undan "o'sib boruvchi"dek foydalanadilar yoki shtrix vositasi sifatida foydalanadilar.

Davomli rasmida ham, xomaki rasmida ham ko'pincha sous ishlatiladi. Sous bilan ishni ikki usulda olib borish mumkin – quruq va ho'l. Birinchi holda qog'ozda retusha bilan ishlanadi, ikkinchisida suvda eritilib, mo'yqalam bilan bajariladi. Mayin mo'yqalam yordamida sous bilan juda nafis xomaki chizgilarni bajarish mumkin.

Xomaki rasmlarda tush ham ishlatiladi. Tush bilan rasm yumshoq mo'yqalam orqali suv qo'shib yoki qo'shmasdan bajariladi. Keyingi holda tush mo'yqalamga juda kam olinadi, chunki mo'yqalam deyarli quruq qoladi va ish, asosan, shtrixlar bilan olib boriladi. Tush bilan ishslashda pero ham keng ishlatiladi. U ayniqsa,

o'lchamlari bo'yicha mayda xomaki chizgilarda ko'p qo'llaniladi. Rangli qalamlarni ham ishlatish mumkin: bir rangli yoki ikki rangli (masalan, jigar rang va qora).

Xomaki rasmlar ustida ishlashda akvarelning imkoniyatlari keng. Xomaki rasmni etyudga aylantirmay, ikki-uch yoki bir rangni qo'llab va shaklni umumlashtirish usulini tus bo'yicha kontrast tarzda olib borib, juda ifodali yechimlarga erishish mumkin.

Qisqa muddatda bajarilgan rasmlarda ko'plab materiallar va bajarishning texnik usullari qo'llanishi mumkin. Biroq ularni tanlash uchun, eng avvalo, badiiy maqsad, ijodiy vazifa, tasvirlanayotgan ob'ekt xususiyatlari va rasm chizuvchining shaxsiy tajribasi bo'lishi kerak.

Atrofimizdagи turmush, predmetlar rasmini chizish eng sodda va o'rghanishning boshlang'ich davriga to'g'ri keladi. Mustaqil ishlar qamrovida turli narsalar chizish ob'ekti bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ammo ish avvalida shaklan ancha sodda predmetlarni tanlash yaxshiroq. Predmet shakli va nisbatlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun turli holatlarda va turli ko'rish nuqtalaridan chizish foydalidir. Bu borada mazmunan umumlashgan predmetlar guruhidan iborat xomaki rasmlarni chizish yaxshi samara beradi.

Me'moriy yodgorliklar, muzeylar va boshqa tarixiy joylarga borganda, davomli rasm bajarish imkoni bo'limganda albomda rasmlar bajarish juda qulaydir. Syujet kompozitsiyasi ustida ishlayotgan rassomga maqsadga javob beruvchi motivni topish uchun mavzuga oid tez, ixcham xomaki rasmlar bajarishga to'g'ri keladi. Xonaning xarakterli ichki ko'rinishini timsoliy qabul qilish, uning odamlar bilan organik bog'lanishi ba'zan rassomning ijodiy tasavvuriga turki bo'ladi va uni ma'lum syujet sari chorlaydi.

Tasviriy san'at o'qituvchisi tayyorgarligida uzoq muddatli, akademik topshiriqlar chizish bilan bir qatorda qisqa muddatli rasmlar (nabroska, tezkor rasm) bajarish muhim ahamiyat kasb etadi. Qisqa muddatli rasmlarning vazifasi

imkoni boricha qisqa vaqt ichida rasmdagi tipik holat va xarakterlarni ajratib ifodalashdan iborat. Bunday rasmlar katta akademik topshiriqni bajarishda ham muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, eng qiziqarli ko'rish nuqtasini tanlashda, tus nisbatini aniqlashda uning ahamiyati kattadir.

Qoralama orqali rassom hayotdagi rang-barang lavhalarni o'z albomiga tushiradi. Shu bilan rassomda obrazli fikrlash xususiyati shakllanadi. To'plangan nabroska, eskiz (qoralama)lar kelajakda bitiruv ishini yaratishda katta yordam beradi.

Qisqa muddatli rasmlar, ayniqsa, oliv badiiy pedagogik ta'lilda muhimdir. Chunki rasm o'qituvchisining sinf doskasida tez va sifatli rasm bajarishi uning professional mahoratidan dalolatdir.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi tayyorgarligida xotira va tasavvur asosida rasm chizish doimiy o'rinnegallashi kerak. Xususan, sirtqi bo'limda o'qiyotgan talaba uchun bu muhimdir. O'rta maktab tasviriy san'at dasturida mavzuli rasmlar bajarishga katta ahamiyat beriladi. Xotira va tasavvur asosida rasm chiza olmagan o'qituvchi, rassom pedagogik va ijodiy faoliyatda ma'lum natijaga erishishi qiyin. Xotiradan rasm chizish qobiliyatiga ko'pchilik ega emas. Bunday fazilatni tarbiyalamoq lozim.

BOB BO'YICHA NAZORAT VA MUSTAHKAMLASH SAVOLLARI:

1. Eskiz nimaligini tshuntiring?
2. Qisqa rasm bajarishning vazifalari?
3. Xomaki rasm qachon qo'llaniladi?
4. Eskiz bajarishda asosan qaysi qonunlarga e'tibor qaratish lozim?
5. Rakurs topish.
6. Rakursda perspektiva.
7. Nabroskada perspektiva
8. Nisbatlar deganda nimani tushunasiz?
9. Tutashuv nuqtalari tushunchasi.
10. Chiziqli perspektiva va havo perspektivasining asosiy qonuniyatları.
11. Qalamtasvirda yorug'lik – soyalar qonuni.
12. Yaxlitlik va tus munosabatlar tushunchasi.
13. Qalamtasvirda kompozitsion yechim.
14. Rasm chizishda ketma-ketlik.
15. Xomaki rasm bajarish bosqichlari.

IV. TAYANCH SO'Z VA ATAMALAR LUG'ATI:

Avtoportret – potret tasvir, unda rassom o'zini tasvirlaydi

Assimetriya – simmetriyasizlik (nomutanosiblik)

Antik – qadimiy

Apollon – qadimgi grek mifologiyasida – Quyosh xudosi, san'at homiysi

Atlanta – arxitektura peshtoqlarini ko'tarib turuvchi, erkak figurasi shaklidagi ustunlar

Akademik uslub – Uyg'onish davri va qadimgi davr san'ati shakllariga asoslangan uslub

Afsonaviy janr – xalq ogzaki ijodi asosida tasviriy san'at namunalarini aks ettiruvchi janr

Badiiy an'ana – qadimdan inson faoliyatining adabiyot, san'at qabi sohalarida erishilgan va saqlanib qolning ilgor yutuklar va tajribalar majmui

Baget – taylor rasm, suvrat qabilarni ichiga joylashtirish uchun mo'ljallangan va sirti o'yma, metall yoki ganch naqshlar bilan bezatilgan to'rtburchakli moslama

Blik – narsa va tasvirlarning eng yorug, yaltiroq joyi

Byust – fransuzcha so'z bo'lib, “ko'krak” ma'nosini anglatadi. U odamning ko'kragidan yuqori qismini tasvirlaydigan haykal hisoblanadi.

Garmoniya – bog'liqlik, uyg'unlik, mutanosiblik

Gravyura - fransuzcha so'z bo'lib, “o'yish” ma'nosini bildiradi

Detal – naturaning ma'lum bir qismi

Drapirovka – fon uchun ishlataladigan har xil rangli matolar

Yorugsoya – (yorug va soya) tasviriy san’at nazariyasiga doir atama

Yorug (shu’la) - tasviriy san’atning nazariy asoslariga oid atama bo’lib, nur va soya qonuniga tegishlidir

Janr – hayot lavhalari, qo’rinishlarini uning mazmuniga ko’ra tasvirlovchi badiiy asar turidir.

Zarisovka – tugallanmagan rasm, chizgi

Illyustrasiya – lotincha ko’rgazmali tasvirlash, yoritish ma’nosini anglatadi.

Kartina – tasviriy san’at asari

Komponovka – chizilishi kerak bo’lgan naturani qog’ozga to’g’ri joylashtirish

Kompozitsiya – tuzish, bir-biriga ma’lum tartibda joylashtirish, solishtirish va birlashtirish

Kompozitsiya qonunlari - tasviriy san’atda yaratiladigan badiiy asarlarning goyasi, mazmuni hamda badiyligini tartibga soluvchi nazariy tushuncha

Kontrast – qarama-qarshilik, zidlik

Maska – niqob, san’atda David, Apollon yuz qismining gips nusxalari tushuniladi

Molbert – rasm ishlash uchun moslama

Model – namuna

Pastel – rassomchilikda ishlataladigan rangdor yumshoq qalam. Tarkibi bo’yoq, bo’r va bog’lovchi moddadan iborat

Perspektiva – rasmda uzoqdan ko’ringan narsalarning tegishli kattalikda berilishi, qisqarish

Nabroska – xomaki ish, qoralama, xarakterli chiziq va shtrixlar yordamida tez bajarilgan chiziqli rasm

Natyurmort – tasviriy san’at janri (franstuzcha – jonsiz tabiat majmui)

Rakurs – suratda chizilayotgan uzoqdagi figura va buyumlarni kichraytirib ifodalash

Shaxsiy soya – tasvirlanayotgan narsalarning sirtidagi o’z soyasi.

Shtrixlash – qalam yoki shu kabi ish qurollari bilan rasm chizganda qo’llaniladigan uslub.

Siluet – kishi, hayvon, qush kabi narsalarning soyaga o’xshatib ishlangan rasmi

Sangina – rassomchilikda ishlatiladigan yumshoq to’q qizil qalam

Tushuvchi soya – predmetdan tushayotgan soya

Portret – fransuz so’zidan olingan bo’lib “tasvir” aniqrogi “odam tasviri” ma’nosini anglatadi.


Plastik anatomiya – anatomiya bo’limi. Bunda inson tanasi nisbatlari, ichki tuzilishi va tana tashqi shaklining harakat vaqtida o’zgarishi o’rganiladi. Asosiy e’tibor skelet tuzilishi, muskullar, suyak va muskullar birlashishiga qaratiladi.

V. ASOSIY ADABIYOTLAR:


- 1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalkimiz bilan birga kuramiz.** – T.: “O’zbekiston”, 2017. 488 bet.
- 2. Berdiyev N.O., Bobomuradov Z.R. Qalamtasvir va rangtasvir fanlaridan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish. O’quv qo’llanma.** – Toshkent, 2020.
- 3. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak.** – T.: “O’zbekiston”. 2017. – 102 bet.
- 4. Osmolovskaya O.V., Musatov A.A. “Risunok po predstavleniyu”.** – Moskva, 2015.
- 5. Sanayev X.S. Qalamtasvir bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma.** – Toshkent: TDPU, 2004.

6. www.gov.uz O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
7. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari


VI. ILOVALAR:




81 - rasm. Kubni chizish bosqichlari




82 - rasm. Silindrni chizish bosqichlari




83 - rasm. Sharni chizish bosqichlari



84 - rasm. Konus chizish bosqichlari




85 - rasm. Natyurmortni bosqichma – bosqish tasvirlash tartibi



86 - rasm. Natyurmortni bosqichma – bosqish tasvirlash tartibi



87 - rasm Harakatdagi ayol qoralamasi



88- rasm. Antik davr haykaltaroshligi namunasi bosh qismi qalamtasviri.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-bob. Tasvirlashning asosiy qonun - qoidalari	
Geometrik jismlardan tuzilgan kompozitsiya.....	6
Me'moriy detallar tasviri (kapitel, rozetka va boshkalar).....	21
Gipsdan yasalgan vaza tasviri.....	26
Qalamda natyurmort chizish.....	35
Yorug-soya nazariyasi.....	38
Qalamtasvirda perspektiva.....	45
Bob bo'yicha nazorat va mustahkamlash savollari.....	49
2-bob. Antik davr haykaltaroshligi namunalarini tasvirlash	
Kesik bosh tasviri.....	51
Bosh qismini anatomik modeliga qarab chizish.....	53
Mikeladjeloning David haykali bosh qismi detallari rasmini chizish.....	56
Gipsdan yasalgan bosh (niqob) rasmini chizish.....	60
Antik davrga mansub gipsdan yasalgan odam bosh namunasi qalamtasvirada tasvirlash.....	68
Oyoq tovoni va qo'l panjalari rasmini chizish.....	81
Gipsdan yasalgan inson qomati rasmini chizish.....	84
Bob bo'yicha mustahkamlash va nazorat savollari.....	87
3-bob. Eskiz va qisqa muddatli rasmlar	
Qisqa muddatli rasmlar bajarish.....	88
Bob bo'yicha mustahkamlash va nazorat savollari.....	95
Tayanch so'zlar va atamalar lug'ati.....	96
Adabiyotlar ro'yxati.....	99
Ilovalar.....	100-106

Оглавление

Введение.....	3
1-глава. Основные правила рисования	
Композиция, составленная из геометрических форм.....	6
Изображение архитектурных деталей (капитель, розетка и др.).....	21
Рисование гипсовой вазы.....	26
Рисунок натюрморта карандашомююю.....	35
Теория светотени.....	38
Перспектива в рисунке.....	45
Конрольные и закрепляющие вопросы по первой главе.....	49
2-глава. Изображение античных скульптур	
Рисунок головы «обрубока».....	51
Рисунок анатомической модели головы.....	53
Рисование деталей (ухо,нос, глаза) с античной модели Давида Микеланджело.....	56
Рисование гипсовой маски Апполона.....	60
Изображение гипсовой модели античного периода.....	68
Рисование гипсовой стопы и кистей рук.....	81
Рисунок гипсовой статуи	84
Конрольные и закрепляющие вопросы по второй главе.....	87
3-глава. Эскизы и краткосрочные рисунки	
Выполнение краткосрочных рисунков.....	88
Конрольные и закрепляющие вопросы по четвёртой главе.....	95
Словарь терминов и понятий в рисунке	96
Список литературы	99
Приложения.....	100-106

Table of contents

Introduction	3
Chapter 1. Basic drawing rules	
Composition made up of geometric shapes	6
Image of architectural details (capital, rosette, etc.)	21
Drawing a plaster vase	26
Pencil drawing of a still life	35
Chiaroscuro theory	38
Perspective in the picture	45
Control and fixing questions for the first chapter	49
Chapter 2. Image of antique sculptures	
Drawing of the "stump" head	51
Drawing of the anatomical head model	53
Drawing details (ear, nose, eyes) from the antique model of David Michelangelo	56
Drawing a plaster mask of Apollo	60
Image of a plaster model of the antique period	68
Drawing plaster feet and hands	81
Drawing of a plaster statue	84
Control and fixing questions for the second chapter	87
Chapter 3. Sketches and short-term drawings	
Execution of short-term drawings	88
Control and fixing questions for the fourth chapter	95
Glossary of terms and concepts in the figure	96
References	99
Appendices	100-106